

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIM VAZIRLIGI
MUQIMIY NOMIDAGI QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

ORIPOVA DILDORA

**MAVZU: MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI
BOLANING TA'LIMG'A TAYYORGARLIGINING
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

*Ilmiy rahbar psixologiya fanlari
nomzodi, dotsent S. Obidjonova*

QO'QON – 2014

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARNING MAKTABGA TAYYORLIK MUAMMOSI PSIXOLOGIK- PEDAGOGIK FANLARNING TADQIQOT PREDMETI SIFATIDA.....	11
I 1§ Xorijiy mamlakatlarda va O'zbekistonda bolalarni maktabga tayyorlash muammosi va uning zamonaviy talqini.....	11
I 2§ Bolalarni maktabga motivatsion -psixologik tayyorlashning nazariy asoslari.....	27
Bob bo'yicha xulosalar.....	35
II BOB. MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGAGA MOTIVATSION-PSIXOLOGIK TAYYORLIGINING MUHIM SHARTLARI.....	37
II 1§ Bolalarni maktabga ijtimoiy-psixologik tayyorligiga ta'sir etuvchi ustuvor omillar.....	37
II 2§ Bolalarni maktab ta'limiga motivatsion psixologik tayyorligining muhim ko'rsatkichlari.....	68
Bob bo'yicha xulosalar.....	85
III BOB. PSIXODIAGNOSTIK METODIKALAR YORDAMIDA OLINGAN EKSPERIMENT NATIJALARINING TAHLILLARI	
III 1§ Bolalarning maktab ta'limiga etukligining ijtimoiy va psixologik xususiyatlari orasidagi o'zaro munosabatlar.....	101
III 2§ Bolalarning shaxsiy, motivatsion -psixologik va aqliy xususiyatlari orasidagi o'zaro munosabatlar.....	109
Bob bo'yicha xulosalar.....	117
XULOSA.....	119
PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK TAVSIYALAR.....	123
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	88
ILOVALAR.....	90

KIRISH

Muammoning dolzarbligi: Mamlakatimizda mustaqilligimizning rivojlanishi yurtboshimiz I.A.Karimov tashabbusi bilan ishlab chiqilgan, hozirgi kunda amalga tadbiq etilishining dolzarb pallasini o'tayotgan „Ta'lim to'g'risida“gi qonun hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi har tomonlama etuk, ijodkor va ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalashda bolalarning maktabga keng doiradagi umumetuklik darajasiga alohida urg'u berishni nazarda tutadi.

Kelajak avlod haqida qayg'urish, barkamol naslni tarbiyalab, voyaga etishtirishga intilish bizning milliy xususiyatlarimizga xos fazilatdir. Bu masalaga alohida e'tibor berilar ekan, yurtboshimiz I.A.Karimov Oliy Majlisning 1X – sessiyasida so'zlagan nutqida: „ ... ***o'qishga borgan boladan yonidagi bolaga nisbatan jismonan, ruhan va aqlan tayyorlik bo'lmasa, bu bolada mutelik, qo'rqqoqlik, o'z kuchiga ishonmaslik, noshudlik avj oladi, boshqalar oldida u o'zini kamsitilgan his qila boshlaydi***“, - deb ta'kidlaydi. (1)

Zikr etilgan mulohazalarni hayotga tadbiq etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13- martdagi „O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida“gi 203 – sonli qarori bilan tashkil etilgan hududiy o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis Markazlari faoliyati umumiy o'rta ta'lim maktablarining birinchi sinflariga 6-yoshli bolalarni qabul qilish, o'qish jarayonida ularning rivojlanish dinamikasini kuzatib borish, o'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalarga maslahatlar berish va boshqa qator ishlarni amalga oshirishda ma'lum darajada amaliy va nazariy ko'nikma, malaka va tajribalarga ega bo'ldi.

Biroq, ayrim hollarda ta'lim-tarbiya muassasalarining bolalarni maktabga tanlab olish masalalari hamma joylarda ham maqsadga muvofiq ravishda amalga oshirilmogda deb bo'lmaydi. Bu o'z navbatida, Respublikamizda psixodiagnostik tanlov ishlari an'analarining hali etarli darajada shakllanib bormogda va shu yo'nalishda tanlovning psixodiagnostik vositalari mahalliy sharoitlarimizga etarli

darajada muvofiqlashtirilmaganligi, zarur bo'lgan me'yoriy ko'rsatkichlarning ishlab chiqilmaganligi kabi turkum ob'ektiv va sub'ektiv omillarga bog'liqdir. SHu bois, maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorgarligining motivatsion xususiyatlarini aniqlash masalasi psixodiagnostik tanlov vositalari yordamida olingan natijalarning ob'ektivligini ta'minlash kabi holatlar bugungi kunda Respublikamiz xalq ta'limi xodimlari, amaliyotchi psixologlar va mutasaddi shaxslar oldida turgan eng dolzrab muammolardan bo'lib qolmoqda.

Ma'lumki, umumta'lim maktablarida ta'lim-tarbiyaning birinchi bo'g'ini, bu - bolalarni birinchi sinflarga, maktablarga qabuli va ularning maktab hayotiga „og'riqsiz“ moslashuvi, yangi o'quvchilar jamoasida bolaga erkin, ixtiyoriy hatti-harakatlarni, ularning psixologik „ichki pozitsiyasi“ni to'g'ri ta'minlashga qaratilgan. Ta'kidlash joizki, bolalarning maktabda o'qishga morfologik, funktsional va jismoniy tayyorligidan tashqari ularning umumiy psixologik motivatsion tayyorligi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bolalarning maktabga shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorligi ularda zarur bo'lgan burch va huquqlarini, yangi ijtimoiy „o'quvchi“ mavqeini to'g'ri idrok qilishga samarali ta'sir ko'rsatadi. Bu tayyorlik bolaning maktabga, o'quvchilarga va o'quv faoliyatiga bo'lgan munosabatlari bilan ifodalanadi. Shuningdek, bu tayyorlik bolalarning jamoada, o'quv jarayonida o'zini erkin, ixtiyoriy harakat qilishga, o'z fikrlari va munosabatlarini bildirishga, maktab hayotining „ichki“ ijtimoiy shart-sharoitlariga engil moslashishga imkon beradi.

Ko'rinib turibdiki, maktabda o'qishga motivatsion tayyorlik muammosi ko'p qirrali bo'lib, uni o'rganish psixologik, fiziologik va morfologik jihatdan keng tarmoqda tadqiq qilishni taqozo etadi. Aynan shu ma'noda, biz maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarning maktab ta'limiga tayyorgarligining motivatsion psixologik jihatdan tayyorligining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish, hamda ulardan tegishli ilmiy, asosli xulosalar chiqarib, keng jamoatchilikka targ'ib qilishni dolzarb muammo deb bildik.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi_maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarning maktab ta'limiga motivatsion tayyorligining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etishdan iborat.

Mazkur maqsadni amalga tadbqiq etish uchun quyidagi **vazifalar** belgilandi:

- bolaning maktab ta'limiga motivatsion tayyorligiga ta'sir etuvchi ustuvor omillarni aniqlash;
- turli ijtimoiy sharoitlarda: sport sektsiyalari va to'garaklar, bolalar bog'chalari va turli shakldagi oilalarda voyaga etgan bolalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining o'ziga xos jihatlarini aniqlash;
- maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarning motivatsion-psixologik etukligi ko'p jihatdan ularning shaxsiy va aqliy etuklik darajalariga bog'liq sabablarini aniqlash;
- maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarning muloqotchandligi, mavqei va o'z-o'zini baholash xususiyatlarining o'zaro munosabatlarini aniqlash;
- tadqiqot jarayonida foydalanilgan psixodiagnostik metodikalarning mahalliy sharoitda differentsial diagnostik imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy farazlar quyidagilarga tayanadi:

Bolalarning maktab ta'limiga tayyorgarligining motivasion xususiyatlari, fikrimizcha, quyidagi omillarga bog'liqdir:

- maktabgacha maxsus va ta'lim-tarbiya muassasalarida, katta oilalarda voyaga etgan bolalarning maktabga motivatsion tayyorlik darajalari birmuncha yuqoriroqdir;
- oilasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (ota-onasining ma'lumoti, yoshi, oiladagi farzandlar soni, oilaning tuzilishi va boshqa omillar) bolaning maktab ta'limiga motivatsion tayyorgarligiga o'z ta'sirini ko'satadi;
- bolalarning kattalar bilan tenghuquqli muloqoti ularning maktabda erkin, ixtiyoriy hatti-harakatlarini ta'minlaydi;

– bolalarning o'z tengdoshlari bilan erkin va ixtiyoriy munosabatlari ularning ta'lim jarayonidagi ijodiy faoliyatiga samarali ta'sir ko'rsatadi;

Ta'kidlash lozimki, bolalarning maktab ta'limiga umumetukligi ularda turli darajada shakllangan fiziologik, jismoniy va psixologik xususiyatlari bilan farq qiladi. Shu bois, psixik taraqqiyotning „notekis“ rivojlanishi, uning senzitivligi ta'siri oqibatida bolalarning biologik va motivatsion-psixologik etuklik, darajalari orasida ham tafovut bo'lishi, tabiiydir.

Bitiruv malakaviy ishining ob`ekti sifatida Farg'ona viloyati O'zbekiston tumanidagi 12– sonli, 15-sonli maktabgacha tarbiya muassasalarining bolalari tanlab olindi.

Bitiruv malakaviy ishining predmetini maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarning maktab ta'limiga tayyorligining motivatsion-psixologik tayyorlik darajasi va uning o'ziga xos xususiyatlari tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy-nazariy va metodologik asosini yosh davrlari psixologiyasining ijtimoiy-psixologik muammolariga oid fundamental faoliyat nazariyasi (L.A.Venger, A.N. Leont`ev, D.B.El`konin va boshqalar), ong bilan faoliyatning birligi (S.L. Rubinshteyn), L.S.Vigotskiyning „taraqqiyotning yaqin va real zonalar“ haqidagi, Sharq mutafakkirlarining barkamol insonni tarbiyalash haqidagi ta'limotlari tashkil etadi. Shuningdek, tadqiqot zahirida Prezident I.A. Karimovning yosh avlodni aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirish, Oliy Majlisning „Ta'lim to'g'risida“gi qonun, „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“da ko'rsatilgan ustuvor tamoyillarga asoslandik.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, biz quyidagi **metodiklardan** foydalandik:

- tadqiqotlarimizga doir ilmiy va akademik pedagogik-psixologik adabiyotlar tahlil qilish;
- Kuzatish. Bolalarning ijodiy ishlari: o'quv va mehnat faoliyati natijalari bilan tanishish;

- bolalarni turli vaziyatlarda kuzatish va tadqiq qilish maqsadida ular bilan suhbatlar, so'rovnoma va anketalardan foydalanish;

- sinalluvchilarning ijtimoiy shart-sharoitlari, ota-onalari, oilasi, maktabgacha tarbiya muassasalari, tarbiyachi – pedagoglari, umuman bola haqida tadqiqotimiz uchun zarur ma'lumotlarni to'plash maqsadida maxsus mualliflik Sotsiologik so'rovnomalar;

- bolalarning atrofdagilar, kattalar bilan munosabatlari, ularning muloqotchandlik xususiyatlarini aniqlash maqsadida „Bolangizning atrofdagi kishilar bilan munosabati qanday?“ sotsiologik so'rovnomasi;

- bolalarning o'z-o'zini baholash darajasini aniqlash maqsadida „Men qandayman?“ metodikasi.

- A.N. Kern va Ya.Yeraseklarning „Bolaning maktabga umumetuklik darajasini aniqlash“ metodikasi;

- shuningdek malakali verbal va intellekt testlaridan foydalandik.

Bitiruv malakaviy ishining yangiligi quyidagilardan iborat:

- bolalarning maktabga aqliy rivojlanganlik va maktabga motivasion etuklik darajalarini kompleks tadqiq etish jarayonida ularning ijtimoiy – psixologik xususiyatlari to'liq o'rganildi;

- maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarning noyob xususiyatlari va ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishning motivatsion – psixologik omillari yoritildi;

- bolalarning maktabga motivatsion-psixologik tayyorligiga turli shakldagi maktabgacha tarbiya muassasalari, oila hamda muhitning ta'siri aniqlandi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy ahamiyati izlanishlarimiz doirasida o'rganilgan falsafiy, maxsus hamda pedagogik–psixologik ilmiy – nazariy adabiyotlar tahlili, mazkur muammoning o'rganilganlik holati, bu boradagi amalga oshirilgan ishlarning tahlili va tadqiqot natijasida ilgari surilgan nazariy g'oyalar hamda xulosalar, O'zbekistonda yosh va pedagogik psixologiya,

pedagogik amaliyotdagi mavjud nazariy bilimlarni boyitishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari, pedagogik kollej va litseylari, maktabgacha tarbiya muassasalari xodimlari va boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashga oid o'quv dasturlari, darsliklar, uslubiy qo'llanmalarni ilmiy asosda yaratishga xizmat qilishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati tadqiqotdan olingan natijalarga asoslanib ishlab chiqilgan me'yoriy ma'lumotlardan bolalarni maktabga qabul qilishda va maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalarni maktab ta'limiga motivatsion tayyorlash borasidagi ishlarni amalga oshirishda tarbiyachilar, boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari, maktab ma'muriyati va amaliyotchi psixologlar faoliyatida foydalanishlari mumkin.

Himoyaga tavsiya etiladigan **holatlar**:

1. Bolalarning maktabga ijtimoiy-psixologik tayyorligi maktabgacha maxsus tarbiya muassasalari, oilalarning tarkibi, ijtimoiy muhitning xususiyatlari bilan ham shartlanadi.
2. Maktabgacha tarbiya muassasalari va katta oilalarda tarbiyalangan bolalarning maktabga ijtimoiy-psixologik tayyorligi o'zga muhitda voyaga etgan tengdoshlariga nisbatan birmuncha yuqoriroqdir.
3. Barkamol etuklik nafaqat ijtimoiy muhit, oilaviy turmush sharoiti, turli hayotiy vaziyatlardan farqli o'laroq bolaning o'z ichki imkoniyatlarini namoyon etish, ro'yobga chiqarish, o'z-o'zini nazorat etish va boshqarish, baholash singari shaxsiy xususiyatlari bilan ham shartlanib, ular mashqlar tufayli uzluksiz harakat va intilishlar tizimiga aylanishi mumkin.
4. Ijtimoiy-psixologik etuk va faol bolalar aqliy jihatdan ham o'zlarida ishonch hissi, tetiklik va tashabbuskorlik fazilatlarini erkin namoyon qiladilar.
5. Komillik genezisi ilk bolalik davridan boshlanganligi bois, uning ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlar bilan ta'minlanishi „Bola-oila“,

keyinchalik „Bola-tarbiyachi“ munosabatlarining senzitiv xususiyatlarini kuchaytiradi. „Bola-oila“, „Bola-tarbiyachi“, „Bola-tengdoshlari“ munosabatlari hamkorlik, hamdardlik (empatiya, simpatiya, attraktsiya, interaktsiya) zahirida kechsa, u holda ular munosabati va muloqotiga ijobiy iqlim yaratilishi, tabiiydir.

**I BOB. MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI
BOLALARNING MAKTABGA TAYYORLIK MUAMMOSI
PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK FANLARNING TADQIQOT
PREDMETI SIFATIDA**

**I. 1§ Sharq va xorijiy mamlakatlarda, O'zbekistonda bolalarni
maktabga tayyorlash muammosi va uning zamonaviy talqini**

Mustaqillika erishib, o'zimizning yorqin milliy istiqbolimizga ega bo'lgach, umuminsoniy va o'zbekona qadriyatlarni har tomonlama anglash imkoniyati paydo bo'ldi. Mustaqil Vatanga har tomonlama etuk, mukammal, axloqiy pok, ma'naviy ustuvor, iymon-e'tiqodi butun, o'z xalqi, o'z ona-Vataniga fidoiy, jismoniy barkamol kishilar etkazish uchun ularning axloqiy-jismoniy tarbiyasiga alohida e'tibor bera boshladik. Darhaqiqat, Vatan taqdiri, xalq ravnaqi, mustaqil yurtning kelgusi boshqaruvchisi – yangi avlod tarbiyasi birinchi o'ringa chiqdi. Juda qiyin, o'ta mas'uliyatli, katta g'ayrat-shijoat, kuch-quvvat, mehnat talab etadigan bu yuksak vazifani uddalashda chuqur tarixga, ma'naviy boylikka ega bo'lgan qadriyatlarimiz alohida o'rin egallaydi.

O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida jahon hamjamiyati safidan munosib o'rin egallashi, mamlakatimizda barcha sohalarning, xususan, ta'lim tizimining tubdan isloh qilinishi, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va „Ta'lim to'g'risida“ gi qonunning yaratilishi yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish bilan bog'liq bo'lgan xalq ta'limi xodimlari, Oliy ta'lim instituti bakalavr bitiruvchi – tarbiyachi pedagoglar oldiga yanada samaraliroq bo'lgan psixologik-pedagogik yondashishlarni yaratish kabi muhim vazifalarni qo'ymoqda.

Ayniqsa, bu borada maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlash muammosi alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, ayni shu muammoning maqsadga muvofiq ijobiy hal etilishi ko'p jihatdan bolalarni kelgusida maktab ta'limini muvaffaqiyatli o'zlashtirishi bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Bolalarni maktabga motivatsion tayyorlash muammosi ko'p qirrali bo'lib, u bola hayotining barcha jabhalarini qamrab oluvchi turkum vazifalarni o'z ichiga oladi.

SHu bois, yosh avlodni maktabga psixologik, motivatsion va jismoniy tayyorlash muammosi asrlar davomida keng jamoatchilikning diqqat markazida bo'lib kelgan va hozirgi kunga qadar bu borada boy nazariy va amaliy tajribalar to'plangani diqqatga sazovordir.

Bola tarbiyasi borasidagi an'analar o'zbek klassik adabiyoti va tarixiy manbalarimizda o'z aksini topgan. Jumladan, IX-XII asr allomalaridan Nizomulmulkning „Siyosatnoma“, Nosir Hisravning „Saodatnoma“, „Rushnoma“, Yusuf Xos Hojibning „Qutadg'u bilig“, Mahmud Qoshg'ariyning „Devonu lug'atit turk“, Ahmad YUgnakiyning „Hisobatul haqoyiq“, Kaykovusning „Qobusnoma“ kabi asarlari jahon olimlarining diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etgan va ulardagi g'oyalar tom ma'noda jahon shoh durdonali sirasidan salmoqli o'rinni egallaydi.

Musulmon dunyosining muqaddas kitobi Qur'oni karim, Muhammad alayhis-salom Hadislari, „Avesto“da, Al-Beruniy, Al-Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy kabi yuksak ma'rifat sohiblarining o'z davrida yaratgan komil inson ta'lim-tarbiyasi masalalariga oid sarmazmun ilmiy-nazariy meroslari hozirgi kunda ham o'zining ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Hozirgi kunda ham Xitoyda uch-etti yoshli bolalar nutqining rivojlanishi, o'ta aqliy qobiliyatlari, aqliy rivojlanishda ortda qolgan bolalar, ular tafakkuri va nutqining o'ziga xos xususiyatlari keng o'rganilib kelinmoqda.

Sharqning buyuk allomasi, faylasuf Al-Forobiy yosh avlodni tarbiyalash masalalari va ular bilan uzviy bog'liq bo'lgan psixologik, fiziologik muammolarni falsafaning muhim qismi sifatida talqin etadi, hamda insonni har tomonlama yaxlit va o'zaro uzviy bog'liq qismlardan iborat deb o'rganish tarafdori ekanligini namoyon eta olgan. Uning fikricha: „Inson tanasi, miyasi, sezgi organlari tug'ilishda mavjud, lekin aqliy bilimi, ma'naviyligi, ruhi, intellektual va axloqiy xislatlari, xarakteri, dini, urf-odatlari, ma'lumoti, boshqa tashqi muhit, o'zga insonlar va shu kabilar bilan muloqotda vujudga keladi, inson o'z faoliyati yordamida ularni egallaydi, ularga erishadi. Uning aqli, fikri, ruhiy

yuksalishning eng etuk mahsuli bo'ladi. Inson o'z bilimlarini, aqlini rivojlantirib, so'ngida mavjudotning ibtidosi, boshlanishi haqidagi ilmga etib boradi". (7)

Buyuk olim Al-Beruniy tarbiyaning maqsadi, vazifalari va roli, inson, yosh avlodning rivojlanishi haqidagi fikrlari chin ma'noda insonparvarlik va insonshunoslik asosida qurilgan.

Bilish va tarbiyaning tabiatga uyg'unlik tamoyillarini Beruniyning barcha asarlarida kuzatish mumkin. Beruniy insonni tabiatning bir qismi deb biladi. Tabiat va jamiyat ilmini o'rganishda tajribaga asoslanadi. U ta'lim jarayonining tabiatiga chuqur kirib borib, bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish asosida qurilgan ta'lim – uning tabiatga uyg'unlik ta'limotining negizidir. (8)

Tabobat ilmining dahosi, faylasuf – olim Abu Ali ibn Sinoning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari uning deyarli barcha asarlarida o'z ifodasini topgan. Xususan, bolaga ta'lim berishni erta boshlash borasida ham Ibn Sino aytgan fikrlariga oid ko'plab rivoyatlar xalqimiz orasida avloddan-avlodga o'tib, bugun ham keng ommada o'qitish va tarbiyalashga individual yondashish, bolaning individual imkoniyatlari, aqliy qobiliyatini inobatga olishligini ta'kidlab: "Har bir odamning moyilligi va qobiliyatidan kelib chiqqan holda o'qitish kerak, aks holda ta'lim va tarbiya kutilgan natijani bermaydi",- deb ta'kidlaydi. (6)

Ibn Sinoning "Tadbiri al-manozil" asarida tarbiyaning asosiy uslublarini ko'rsatib, agar oila tarbiya uslubini to'g'ri tadbqiq eta olsa, uni o'rinli qo'llay olsa, bolalar hayotida o'z baxtlariga tez erishadilar, degan g'oyani ifodalaydi. (62)

Ma'rifatparvar shoir, davlat arbobi Alisher Navoiy inson tafakkuri, aqli, bilimni yuksak qadrlagan. Navoiy bola tarbiyasiga va uni to'laqonli shaxs sifatida shakllantirishga katta ahamiyat berib, bolani hayot „chirog'i“ deb ta'riflaydi. Shu bois, bolani yoshligidan kamol toptirishda ota-onalarning roliga, ularning o'z farzandlari ta'lim-tarbiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarga alohida e'tibor berish lozimligini ta'kidlaydi.

Alisher Navoiy bolalarning ta'lim jarayonida o'z tengdoshlari bilan hamkorlikda faoliyat yuritishi zarurligini, bunday hamkorlik bolalarda yuksak

insoniy fazilatlarni shakllantirishini deydi. Xususan, shoirning „Hazoyinul – maoniy“ asarida: „Bolalarning jamoa bo‘lib ta‘lim olishi ularda bir-biriga nisbatan o‘zaro yordam, musobaqa, o‘ziga xos munosabat, qayg‘urish, tashabbuskorlik, sog‘lom raqobatchilik muhitini shakllantiradi“, - deb ta‘kidlaydi. (47)

Mazkur muammo doirasidagi psixologik-pedagogik va maxsus adabiyotlar tahlili komil inson masalalari buyuk sarkarda Amir Temur o‘gitlarida, ma‘rifatparvar faylasuf-olimlar Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshbandiy, Shayx Najmiddin Kubro, birmuncha keyingi avlod vakillari Toshmuhammad Qori Niyoziy, S. Rajabov singari xalqimizning buyuk va suyuk insonlarning merosi ilmiy-nazariy jihatdan ozmi-ko‘pmi, ma‘lum darajada tahlil etildi, o‘rganildi. Zero, bu qimmatli fikr-mulohazalar bizning tafakkurimizda bolani maktabga tayyorlash, uni maktabda o‘qitish, uning aqliy imkoniyatlariga bo‘lgan e‘tibor uzoq o‘tmish tarixga ega ekanligini isbotlab turibdi.

So‘nggi 15-20 yillar mobaynida xorij va mamlakatimizning mazkur soha mutaxassislari, psixolog va pedagog olimlar davrasida “maktabda o‘qishga tayyorlik” borasida qizg‘in bahs–munozaralar yuritib kelinmoqda. Bolalarni maktabga tayyorlash masalasi ko‘pqirrali bo‘lib, u bola hayotining barcha jabhalarini, kompleks vazifalarni o‘z ichiga qamrab oluvchi jarayondir.

Uzoq o‘tmishda maktabga qabul qilinadigan bolalarning yoshi aniq belgilanmas, ba‘zi ota-onalar o‘z farzandlarini 5 yoshda, ayrimlari esa 6-8 yoshlarda, unda ham o‘z farzandlarining yosh xususiyatlari yoki tavsifnoma berish yo‘llari bilan maktablarga qabul qilinardi.

Qadimgi Gretsiyada (Afina va Sparta davlatlarida) bolalarning o‘qish faoliyati 7 yoshdan boshlangan bo‘lib, bolalar o‘qish, hisob-kitob, musiqa va ashula asoslari o‘rgatiladigan maktablarda tahsil olishgan. Ayni shu davrda buyuk inson faylasuflari Platon va Aristotellar birinchilardan bo‘lib bolalarni „necha yoshdan?“ va „nimalarga o‘qitish kerakligi?“ haqidagi tushunchalarni olg‘a surishgan.

Platonning fikricha, bolalar 7 yoshdan maktabga qabul qilinishi lozim. E'tiborlisi, bolalarni 7 yoshga to'lgunga qadar ular maxsus tarbiyachilar rahbarligida turli jismoniy va aqliy mashg'ulotlar bilan shug'ullanishlari kerakligini ta'kidlaydi. Bunday mashg'ulotlar bolalarni maktabga tayyorlashning eng samarali tarbiya vositasi sifatida ularga alohida e'tibor berish va sinchiklab o'rganish lozimligini uqtiradi.

Aristotel` pedagogika tarixida birinchilardan bo'lib o'zining kuzatishlari va bolalarning rivojlanishlari asosida ularni shartli ravishda quyidagi yosh davrlarga tasniflashni taklif etadi:

- 1) 7 yoshgacha bo'lgan davr;
- 2) 7 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan davr;
- 3) Balog'atga etgandan 21 yoshgacha bo'lgan davr;

Faylasufning fikricha, bolalikni davrlarga ajratish uning rivojlanishi bilan birga bo'lishi kerak. Shu bois ham u bolaning rivojlanishiga qarab, bolani 5 yoshdan boshlab maktabda o'qitiladigan predmetlar bo'yicha bo'ladigan mashg'ulotlariga qatnashishi, 7 yoshdan esa maktabda o'qish kerakligini ko'rsatib beradi.

O'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab xorijda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash muammosini ilmiy-nazariy tadqiq etishga bo'lgan e'tibor yanada kuchayadi. Ularda bolaning maktab ta'limiga etuklik masalalari bo'yicha boy nazariy va amaliy tajribalar va turli talqindagi manbaalar to'plangan.

19 asr oxiri va 20 asr boshlarida G'arbiy Evropa mamlakatlari va AQSHda inson psixologik xususiyatlari bilan bog'liq tajribalarga asoslangan qator ilmiy nazariya va yo'nalishlar maydonga keldi. Odam psixik tabiatini turlicha talqin qilishiga qaramay, bu nazariyalar ma'lum darajada psixologiya ilmining rivojlanishiga munosib ulushini qo'shishdi. Bu borada E.Meyerman, S.Xoll, K.Byuler, E.Klapared, P.Jane, J.Piaje, A.Vallon, D.Bruner va boshqa qator olimlarning ilmiy tadqiqot va tajribalari fanda munosib o'rin egallaydi.

Olmon psixologi E.Meyerman bolaning maktab davrida uning ruhi va tanasida kechayotgan o'zgarishlarni to'liq bilmay turib, unga buyruq yoki taz'iyiq o'tkazib bo'lmaydi, deb ta'kidlaydi. Uning fikricha, eksperimental pedagogika fanning maqsadi ayni shu muammolarga qaratilishi lozim. (47)

Amerikalik psixolog S.Xollning fikriga ko'ra, har qanday bola o'zining individual taraqqiyotida filogenezni takrorlaydi, shu bois. Bolalarga ibtidoiy instinktlarni og'riqsiz, oson kechishi uchun qulay imkoniyatlar yaratib berish zarur. S.Xoll o'z tajribalari asosida boy ashyoviy dalillar to'plab, bola haqida psixologik. Fiziologik hamda pedagogik bilimlarning kompleks dasturini yaratish g'oyasini olg'a suradi. (47)

Shveytsariyalik psixolog E.Klapared „Bola psixologiyasi va eksperimental pedagogika“ asarida qiziqish, motiv, ehtiyojlarning metodologik asoslari, bolalarning tafakkur xususiyatlari va rivojlanish qonuniyatlari, o'xshashlik va tafovutning bola ongida sodir bo'lishi to'g'risida mulohaza yuritadi.(47)

Psixolog P.Janening fikricha, inson psixikasi ijtimoiy munosabatlarga bog'liq, zotan jamiyat va tabiat o'rtasidagi turli aloqalar tizimining shakllanishi, insonning ulg'ayishini belgilaydi. Olim aloqa vositasi sifatida hatti-harakatni tushunadi, ma'lumki bu narsa kishining atrof-muhitga shaxsiy munosabatidan boshqa narsa emas, albatta. P.Janening ta'kidlashicha, eng qimmatli, ahamiyatli, ijtimoiy harakat hamkorligidagi faoliyatda shaxs o'z ifodasini topadi, shaxslararo tashqi munosabatlar rivojlanishning, taraqqiyotning muhim tamoyili hisoblanadi. (47)

Amerikalik psixolog Dj.Bruner shaxsning tarkib topishi bilan ta'lim o'rtasida o'zaro aloqa mavjudligini ta'kidlab, insonning kamolot sari intilishi bilim olish samaradorligini oshirsa, o'qitishning takomillashuvi uning ijtimoiylashuvini jadallashtiradi, deb ta'kidlaydi. (24)

Amerikalik tadqiqotchi D.E.Evensning ta'kidlashicha, maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasi va ta'lim bilan shug'ullangan barcha tadqiqotchilar

bevosita yoki bilvosita mazkur muammo doirasida o'ziga xos izlanishlar olib borgan va tegishli natijalarga erishganligini ta'kidlaydi. (151)

A.Anastazi maktabga umumetuklik tushunchasini bolaning maktab dasturlarini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va qobiliyatlarning tarkib topishi bilan izohlanishini aytadi.(14)

O'tgan asrning 70–yillarida F.L.Ilg va L.B.Eymslar bolalarni maktab ta'limiga tayyorlik jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan maxsus topshiriqlar tizimini yaratishga erishdilar. Ularning tadqiqot natijalari 5 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalarni o'rganish imkonini beradi.(153)

Y.Shvantsara bolani maktabga etukligi – uning maktabda o'qish qobiliyatiga ega bo'lishi deb ta'kidlaydi. Y.Shvantsara bolani maktabda ta'lim olishga tayyorligini aniqlashda, asosan, uchta mezon – aqliy, ijtimoiy hamda emotsional jihatlariga alohida e'tibor berishligini ta'kidlaydi.(139)

D.B.Ozubel: “Agarda bola maktabga tayyor bo'lmasa, unda maktabdagi ta'lim dasturini o'zgartirishni va shu asosida barcha bolalarning rivojlanishini asta-sekin tenglashtirib borishni taklif etadi.”(150)

Shuningdek, J.Piaje, E.Torndayk, Dj.Uotson, F.Galton, A.Bine, T.Simon, M.Shyurerlar bola psixik taraqqiyotida ta'limning mavqeini, ularning aqliy xususiyatlarini, dasturli ta'lim, ko'nikma va malakalarning ahamiyatini, mashqlarning o'rnini ilmiy-amaliy asoslab berishda muhim o'rin egallaydilar. Ular tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar, bir tomondan, bu muammo doirasida talaygina nazariy va amaliy mashg'ulotlar to'plashga, hamda amaliy tajribalar o'tkazdirish uchun ular tomonidan yaratilgan metodik dastur va qo'llanmalar hozirgi kunda ham dasturulamal sifatida keng ommada qo'llanilib kelinmoqda.(115,131 va boshqalar)

Rossiyada psixologik tadqiqot namunalari Sharq va G'arb madaniyati ta'sirida inson ruhiyati bilan bog'liq turli asarlarda shakllanib kelingan. V.N.Tatishev, A.N.Radishev, N.I.Novikov va boshqalarlarning asarlaridagi

dastlabki qarashlari ham psixik taraqqiyotning o'ziga xos xususiyatlari, psixik rivojlanishdagi tafovutlar bilan yo'g'rilgandir.

N.I.Novikov bashariyat farovonligini ko'zlab, yoshlar va bolalar o'rtasida foydali bilimlarni keng targ'ibot etish uchun ularni o'ziga xos tarzda tarbiyalamoq zarur, deb aytadi. Uning asarlarida insonning kamoloti uchun tafakkur, xotira, axloq, his-tuyg'u va taqlidchandlik alohida ahamiyat kasb etadi. (47)

Bu borada K.D.Ushinskiyning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Uning fikricha, ta'lim-tarbiya haqidagi fanlarning asosiy vazifasi tarbiyaning maqsadini aniqlashga, ta'lim-tarbiya natijalarini to'g'ri baholashga, shular asosida yangi metod va usullar yaratishga, pedagogik tajribani tahlil qilish va umumlashtirishda muhim o'rin egallashini aytadi. K.D.Ushinskiyning „Inson tarbiya predmetidir“ asarida pedagogik ta'sir jarayoni hisoblangan insonning psixologik xususiyatlari, uning o'ziga xos tomonlari o'z ifodasini topgan. Uning ta'biri bilan aytganda: „Agarda biz bolani har tomonlama tarbiyalashni istasak, biz avval uni har tomonlama o'rganishimiz zarurdir, ana shundagina biz tasavvur qilgan haqiqiy insonni voyaga etkazdirgan bo'lamiz“, - degan fikrlari barcha bola ta'lim-tarbiyasi uchun mutasaddi bo'lgan shaxslarga muhim ko'rsatmadir.

Bolaning maktabga umumetuklik va maktabgacha yoshdagi bolalar aqliy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari L.I.Bojovich, V.V. Davidov, D.B.El'konin, L.A.Venger, A.P.Venger, V.V.Xolmovskaya, V.S. Muxina, A.V.Zaporojets, I.V.Dubrovina, L.S.Vigotskiy, A.N.Leont`ev, S.L.Rubinshteyn singari olimlar tomonidan yaratilgan yangi ilmiy nazariyalar, chunonchi psixikaning madaniy-tarixiy rivojlanishi va taraqqiyotning o'zaro munosabat nazariyasi, psixik taraqqiyotda faoliyatning mavqei singari ilmiy-nazariy qarashlari hozirgi kunda psixologiya fanining tayanch tushunchalariga aylanib qolgani barchamizga ma'lumdir.

Mazkur muammo tadqiqotchi-olimlar tomonidan to'rt yo'nalish bo'yicha amalga oshirilgan. Bu yo'nalishlar, asosan, maktabgacha yoshdagi bolalarda

maktabda ta'lim olishi uchun zarur bo'lgan maxsus ko'nikma va malakalarni shakllantirish masalalariga qaratilgan.

Tatqiqotchi- olim L. I. Bojovich: „ . . . maktabgacha yoshdagi bolaning betashvish vaqtini o'tkazishi to'la tashvish va mas'uliyatdan iborat bo'lgan hayot bilan almashinadi, chunonchi bola maktabga borishi, maktab dasturiga kiritilgan fanlar bo'yicha shug'illanishi, dars jarayonida o'qituvchi talablarini bajarish, maktabning ichki tartib – intizomiga bo'ysinish, dastur bo'yicha lozim bo'lgan bilim va malakalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishga erishish kerak“ – ekanligini qayt qiladi. Shuningdek, A.I.Bojovich bola ruxiyatidagi bilish qiziqishlarining rivojlanishi, ijtimoi sharoitning o'zgarishiga tayorligi, o'qishga bo'lgan hohishi kabi yangiliklar ro'y berishini o'quv motivatsiyasi va o'z-o'zini baholashning yuzaga kelishi lozimligini ta'kidlaydi. Mazkur yo'nalish namoyandalari yuqorida zikr etilgan psixologik xususiyatlar va sifatlar mazmuni maktabda o'qishga psixologik tayyorlikni tashkil etadi.

A.I.Bojovichning ta'kidlashicha, maktabga tayyorlik fikirlash faoliyati, qiziqish,ko'lam, faoliyatning ixtiyoriy boshqaruvi va ijtimoiy o'quv vaziyatining ma'lum darajasida rivojlanganligiga namoyon bo'ladi. (22)

Shuni ta'kidlash joizki, maktabda o'qish va o'quv faoliyati aynan bir mazmunni anglatadigan tushunchalar emas. V.V.Davidov va D.B.El'koninlarning ta'kidlashicha, maktab hayotini tashkil etishda hamma o'quvchilarda ham o'quv faoliyati to'g'ri yo'lga qo'yilavermaydi va ko'pincha o'quv faoliyatini o'zlashtirib olish maktabdagi ta'lim doirasida amalga oshadi. Shu bois, bu mualliflar maktabda o'qitishning an'anaviy shakllarini tanqid ostiga qo'yadilar. (52,141)

Taniqli rus psixologi L.A.Venger va uning izdoshlari tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy yo'nalish e'tiborga loyiqdir. Unda fundamental psixologiyaning asosiy tamoyili, ya'ni insonning barcha psixologik xususiyatlari uning faoliyati jarayonida shakllanishi aytiladi. L.A.Vengerning fikricha, maktabgacha yoshdagi bolada maktabda o'qishga xos xususiyatlar hali

shakllanishi mumkin emas, bu xususiyatlar faqat o'qish jarayonida tarkib topadi.
(29)

A.V.Zaporojetsning fikricha, bolaning maktab ta'limiga tayyorligi, bu - bir-biri bilan uzviy bog'langan bola shaxsining sifatlariga kiruvchi motivatsiya, bilish jarayoni, irodaviy faoliyat mexanizmlarining shakllanganlik darajasidan iborat yaxlit bir tizimdir deb izohlanadi. (60)

I.V.Dubrovina bolalarning maktabga funktsional tayyorligini muhim mezon sifatida ko'rsatib, quyi darajadagi funktsional tayyorlik, bolalarning maktab dasturini egallashga qiynalishlari, tezda toliqadigan, bu toifadagi bolalar kasallika birmuncha moyilroq deb ta'kidlaydi. Bunday bolalarning aksariyati, deyarli birinchi kunlardan boshlab „qoloq“ o'quvchilar safidan o'rin egallashadi, ba'zilar yaxshi ko'rsatkichlarga erishsalarida doimiy asabiylashgan, tajang, bular ta'sirida nevroitik va psixosomatik kasalliklarga chalinishi mumkinligini ta'kidlaydi.(119)

L.A.Venger va V.S.Muxinalarning fikricha, maktabga psixologik tayyorlik – bu maktabgacha yosh davrdagi psixologik rivojlanishning muhim natijalaridan biridir. Bolaning maktabga borishi uning hayotida keskin o'zgarishlar yasaydi. Bu o'zgarish yangi turmush tarzi va ijtimoiy faoliyat jamiyatda o'z mavqeiga `ga bo'lishi, kattalar va tengdoshlari orasida yangi munosabatlar tizimini yaratishga qaratilgan. O'quvchining yangi ijtimoiy faoliyati ta'limning majburiyligi, jamiyat uchun kerakli faoliyat turi bilan shug'ullanishi, yangi ijtimoiy hayotni o'zlashtirishi va shu singarilardir. Bunda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida yangi munosabatlar tizimi vujudga keladi. O'qituvchi endi o'quvchining ko'z oldida oddiy kishi emas, balki jamiyat talablarini ado etuvchi, muayayn bilim va tajribalarni yosh avlodga etkazuvchi shaxs sifatida gavdalanadi. (29,94)

Tadqiqotchilar I.I. Budnitskaya va A.A. Kataevalarning fikricha, maktabga psixologik tayyorlik – bu bola bilish jarayonlarining, shaxsiy sifatlarining, qiziqish va malakalarining, xarakter xususiyatlarining aniq rivojlanganlik darajasiga erishganligidan dalolat beradi. (108)

Tadqiqotchi A.P.Usova: „Maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘qitib turish zarur, chunki bu ularning ruhiy rivojlanishi va maktabga tayyorlanishi uchun muhim omildir. O‘qish jarayonida va uning bevosita ta’siri ostida bolalarda o‘quv faoliyati bolaning ma’lum bir yo‘nalishdagi aqliy faoliyatini amalga oshirish qobiliyati, shuningdek tinglash va anglash kabi qobiliyatlarini shakllantiradi. Bu sifatlar esa o‘qish qobiliyati rivojlanishining dastlabki qadamlaridir. O‘qish faoliyati bola xulqida sezilarli o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. U birmuncha mas’uliyat his eta boshlaydi, o‘zini tuta bilish, kattalar bilan hurmatda. E’tiborliroq bo‘lib qoladi“, - deb aytadi. (132)

Shuningdek, yana ko‘plab tadqiqotchilarda bolani o‘qish faoliyati doirasidagi vazifalar turli vaziyatdagi hatti-harakatlarni, maktabda o‘qishga psixologik tayyorlikning mezonlari bo‘lishi mumkinligi haqidagi qarashlar qayd etilgan.

Hozirgi kunda mazkur muammo davlatimiz siyosati darajasiga ko‘tarilib, bu borada salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Ma’lumki, 1998-1999 o‘quv yildan boshlab umumiy o‘rta ta’lim maktablarining birinchi sinflariga bolalar 6-7 yoshlardan qabul qilinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 203 – sonli qarori asosida tashkil etilgan o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik tashxis Markazlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri ham olti yoshli bolalarni tibbiy-psixologik-pedagogik ko‘rikdan o‘tkazish, tashxis natijalari asosida ularning ota-onalariga tavsiyalar berish hamda maktabga qabul qilingan bolalarni yangi ijtimoiy muhitga va asosiy faoliyat turi – o‘qishga moslashtirish psixologik korrektsiya rivojlantirish ishlarini tashkil etishdan iborat.

Ana shu hukumat qarorlaridan kelib chiqqan holda, bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni oldiga qo‘yilgan maqsad va vaziqalarning bajarilishi „Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim – tarbiyasiga qo‘yiladigan davlat talablari,“ asosida nazorat qilinadi. Mazkur davlat talablarida maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan ta’lim –

tarbiya mazmunining asosiy yo'nalishlari hamda ularning maktabga tayyorlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar belgilab berilgan bo'lib, u davlat hujjati sifatida e'tirof etiladi. Davlat talablarida maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan ta'lim-tarbiya mazmunining asosiy yo'nalishlariga : jismoniy, nutq, va tafakkurini rivojlantirish, motivatsion, ma'naviy – madaniy etukligi singari xususiyatlar tashkil etadi.

Ushbu asosiy yo'nalishlardan biri – maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining rivojlanganligi, xotira, mustaqil fikrlashga o'rgatish, ertak va hikoyalar so'zlab yoki o'qib berishlari bola nutqi mazmunining negizini tashkil etadi. Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan Davlat talablarida belgilangan ko'rsatkichlariga erishgan 6-7 yoshdagi bolalarni maktabga to'la-to'kis tayyorligini aniqlaydi.

Ayni vaqtda mamlakatimizda bolalarni maktabga tayyorlashning psixologik, motivatsion va intellektual muammolarini nazariy va amaliy tadqiq etish ishlari samarali ilmiy yo'lga qo'yilgan.

Bu borada T.Qori-Niyoziy, S.Rajabov, P.I.Ivanov, M.Vohidov, M.G.Davletshin, E.G'oziev, B.Qodirov, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, R.Gaynutdinov, R.Sunnatova, A.Jabborov va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari hozirgi zamon metodologik tamoyillari asosida yoritilganini e'tirof etish mumkin.

Jumladan, Q. Niyoziy nomidagi pedagogik fanlari ilmiy-tekshirish instituti tarkibida faoliyat yuritayotgan ilmiy xodimlar – olti yoshli bolalarni oqilona, unga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan, balki ularning tabiiy imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish, ya'ni bolani to'la-to'kis rivojlanishini nazarda tutuvchi fundamental ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bunda bolaning yoshidan qat'iy nazar, uning psixologik, psixofiziologik va ijtimoiy-psixologik etuklik darajasiga qarab bolalarni maktabga tavsiya eta olish imkoniyatlari o'rganildi.

Respublikamizda faoliyat yuritayotgan oliy o'quv yurtlari tasarrufidagi psixologiya yo'nalishidagi fakul'tet va kafedra professor-o'qituvchilari ham bu

borada nazariy va amaliy tajribalar to'plashgan, o'ziga xos maktablar yaratishga muvaffaq bo'lishdi.

Bolalarni maktabga tayyorlash, ularning aqliy rivojlanganligi darajalarini o'rganish, iqtidorli bolalarni tanlab olish borasida Respublikamizda amalga oshirilgan diqqatga sazovor yo'nalishlardan biri professor B.R.Qodirov tomonidan olib borilgan. U o'z tadqiqotlarining samarasi sifatida bir necha ilmiy maqolalar, ilmiy-uslubiy tavsiyanomalar, monografiyalar nashr ettirdi.(144-145) Alohida e'tiborga loyiq tadqiqotlar professor M.G.Davletshin tomonidan amalga oshirilgan. Unda o'quvchilarda texnik iqtidorligining tarkibiy tizimi, uning jihatlari farqlab berilgan. Shuningdek, o'quvchilarning texnik iqtidorini tadqiq etish bo'yicha tajriba vazifalari turkumi tuzib chiqilgan va ulardan foydalanish, olingan natijalarni qayta ishlash uchun me'yoriy ma'lumotlar, texnik qobiliyatlar va o'quvchining o'zlashtirishi o'rtasidagi bog'liqlikning mavjudligi kabi boy ma'lumotlar to'plandi. (48,49)

Respublikamizda bolalarni maktab ta'limiga psixologik tayyorlash muammolariga bag'ishlangan dastlabki ilmiy-tadqiqot ishlari M.Zufarova tomonidan samarali amalga oshirilgan. Muallif o'z tadqiqotlari natijalariga asoslanib, tegishli xulosalarni ilgari suradi : „Bolani o'qish va yozishga, harflardan so'zlar tuzishga o'rgatish zarur, lekin uni to'g'ri usullar bilan olib borilsagina u maqsadga muvofiq bo'ladi. Qayta o'rgatish esa dastlabka o'rgatishga nisbatan juda murakkab kechadi. SHu bois, bolalarni maxsus mashq qilish yo'llari bilan yozish va o'qishga o'rgatish shart emas. Buning o'rniga bolaning qo'l-motor harakatlarini takomillashtirish, ularga rasmlar chizdirish, applikatsiya bilan shug'ullantirishlari yozishga tayyorlashning maqsadli vositalaridandir. Ota-onalar o'z farzandlarini maktab ta'limiga tayyorligi masalasida quyidagilarga e'tibor berishlari maqsadga muvofiqdir:

1. Maktabga keladigan bola o'zining ismi va familiyasini, yoshini to'la bilishi kerak. Shuningdek, bola ota-onasining ismi, familiyasi, ularning qayerda ishlashini bilishlari kerak;

2. Bolalarda maktab haqidagi umumiy tasavvurini kengaytirish, unda kitoblarga nisbatan muhabbatini tarbiyalash;
3. Bolaning tovush va so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishiga e'tibor berish. Tovushlarni ajratishga, bo'g'inlab o'qishga o'rgatish, eshitish idroki va qobiliyatini rivojlantirish;
4. Katta kishilar va oila a'zolariga nisbatan xushmuomala bo'lish ko'nikmasini hosil qilish;
5. Bolani chap-o'ng, past-baland, uzoq-yaqin singari tushunchalar bilan tanishtirish, kundalik rejimga rioya qilishga o'rgatish;
6. Agarda ota-ona bolalarning savodini chiqarish usullarini bilsa, unda 4-5 ta harfni yozish va o'qishni o'rgatishi, bu bolani maktab ta'limiga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Bu go'yo ota-onalar uchun mushkul tuyulsa-da, biroq bular kundalik ish sifatida samarali zamin yaratib boradi.

Ota-ona o'z farzandining kelajagi uchun qayg'uradi, o'ylaydi. Shu vaqtda u yuqorida ko'rsatilgan talablarga rioya qilib borsa, unda kelajak orzulari osonlikcha ro'yobga chiqishi mumkin. Bola shundagina tayyor bo'ladi. Qolgan jarayonlar esa o'qish davomida, savodga o'rgatish jarayonida shakllanadi",- deb ta'kidlaydi. (61)

Sh.A.Do'stmuhammedova olti yoshli bolalarning ta'lim jarayonida pedagogik baholashning psixologik xususiyatlarini o'rganish muammolari muallif tadqiqotining asosiy predmeti hisoblanadi. (51)

R.I.Sunnatova tomonidan 4-5 yoshli bolalarning aqliy taraqqiyot diagnostikasi o'rganilib, bu borada tegishli xulosalar yaratildi. (130)

F.S. Ismagilova va Z.T. Nishonovalar o'z ishlarida ijodiy qobiliyat muammosi haqida mulohazalarini berishib, aqliy qobiliyatlarning o'lchovi, shakllari va bosqichlari tavsifini berib o'tganlar. Z.T.Nishonovanning tadqiqoti esa yuqori sinf o'quvchilarida aqliy faoliyat usullari va yo'llarini egallash xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan, Unda o'quvchilarning fikrlash strategiyasiga o'rgatish usuli ishlab chiqildi, o'zbek maktablarining

o'quvchilarida aqliy faoliyat usullarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. (64)

Psixolog va pedagog olimlarimiz bilan bir qatorda Respublikamizning turli viloyatlarida faoliyat yuritayotgan ta'lim muassasalari xodimlari tomonidan ham bolalarni maktabga tayyorlash va aqliy rivojlantirish masalalariga oid diqqatga sazovor ishlar amalga oshirilgan. Hozirgi vaqtda respublikamizda bolalarni maktabga tayyorlash va ularni aqliy rivojlantirish masalalarini o'rganish borasida nafaqat olimlar, ilmiy tadqiqotchilar, balki amaliyotchi psixologlar, pedagog o'qituvchilar, tarbiyachilar tomonidan ham qator ishlar amalga oshirilgan. Shuningdek, Sh.R.Barotov, M.A.Norbasheva, G.To'laganova, X.Ruxieva, Sh.Usmonova, D.Mirzajonova va boshqa tadqiqotchilar o'z ishlari bilan Respublikamizda bolalarni maktabga tayyorlash, ularning aqliy rivojlanganlik darajalarini o'rganish va rivojlantirish borasidagi ishlarga o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan yutuqlar bilan bir qatorda bolalarni maktabga etuklik va aqliy rivojlanganlik darajalarini aniqlash, maxsus tashkil etilgan, iqtidorli bolalar uchun mo'ljallangan yangi tipdagi ta'lim-tarbiya muassasalari litsey, kollej, gimnaziyalarga o'quvchilarni tanlab olishda qator kamchiliklarga yo'l qo'yilmoqda. Bunday holatlarga yo'l qo'yilishining asosiy sabablaridan biri joylarda malakali mutaxassislarining etishmasligi bo'lsa, yana bir sababi yuqori saviyadagi psixodiagnostik tanlov ishlarini olib borish uchun zarur vositalar, anketalar, so'rovnomalar, testlar va ular uchun zarur me'yoriy ma'lumotlarning etishmasligidir. Bularning barchasi Respublikamizda psixodiagnostik tanlov ishlarini yuqori saviyada ilmiy, asosli ravishda faoliyat yuritishga salbiy ko'rsatishi, tabiiydir.

II 2§ Bolalarni maktabga motivatsion -psixologik tayyorlashning nazariy asoslari.

Bolaning maktabdagi muntazam ta'limga psixologik tayyorligi uning maktabgacha bo'lgan davrdagi rivojlanishining natijasi hisoblanadi. Zero, maktab

ta`limiga psixologik tayyorlik uning motivatsion, aqliy rivojlanishning ma`lum darajasini hamda shaxsni zarur sifatlarining shakllanganligini nazarda tutadi.

Ta`limga psixologik tayyorlik deyilganda, bolaning ob`ektiv va sub`ektiv jihatdan maktab talabiga munosibligi nazarda tutiladi. Bola dastlab maktab ta`limiga psixologik jihatdan tayyorlanadi. Binobarin, uning psixikasi bilim olishga etarli darajada rivojlanadi. Shu yoshdagi bola idrokining o`tkirligi, ravshanligi, sofligi, o`zining qiziquvchanligi, xayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurining yaqqolligi bilan ontogenezdagi boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Bu yoshdagi bolalarning diqqati nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror bo`ladi. Bola diqqatining xususiyatlari rol va syujetli o`yinlarda, rasm chizish va qurish-yasash mashg`ulotlarida, loy hamda plastilindan o`yinchoqlar yasashda, o`zgalar nutqini idrok qilish va tushunishda, matematik amallarni echishda, hikoya tinglash va tuzishda yaqqol namoyon bo`ladi. SHu davrgacha bola bevosita kattalar rahbarligida u yoki bu axborotlarni o`zlashtirib kelgan bo`lsa, endi u o`z hohish-irodasi bilan zarur ma`lumotlar to`plashga, o`z oldiga aniq maqsad va vazifa qo`yishga harakat qiladi.

Uning nutqi maktab ta`limiga tayyorlov bosqichida kattalar bilan muloqotga kirishish, kishilarning fikrini uqib olish va to`g`ri idrok qilish darajasida, nutqining tuzilishi esa grammatik qoidalarga mos, mantiqan izchil, ifodali, miqdor va ko`lam jihatidan fikr almashishga etarli bo`ladi.

Bolaning psixik tayyorligi to`g`risida fikr yuritilganda ko`pincha muayyan reja asosida, tartibli, ko`p qirrali maqsadlarga yo`naltirilgan, o`zaro mantiqan mushtarak, izchil boshlang`ich ta`limga zamin vazifasini o`tovchi psixik o`sish darajasi nazarda tutiladi.

Shuningdek, ta`lim uchun psixik o`sish darajasidan tashqari, bola turmushi va faoliyatining tafovutlari, sharoitlari, o`ziga xosligi, uning sihat-salomatligi, uslubiy jihatdan tayyorligi, oddiy ko`nikmalarni o`zlashtirishi kabi omillarni inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Yuqorida zikr etilgan xususiyatlar bolaning maktab ta`limiga psixologik tayyorligining **ob`ektiv tomonlarini** ifodalaydi.

Bola maktab ta'limiga psixologik tayyoligining **sub`ektiv tomoni motivatsiyasi** ham muhim ahamiyatga egadir. Uning maktabda o'qishga bo'lgan hohishi, intilishlari, katta yoshdagi kishilar bilan muloqotga kirishish istagi mazkur tayyorlik bilan uzviy bog'liqdir. Bolada shu davrga kelib o'qish, bilim olish haqida to'g'ri tasavvur shakllanadi. U maktab jamoasi a'zolarining mas'uliyatli vazifalarini anglaydi va ularga itoat qilishga, ularning ko'rsatkichlarini bajarishga moyillik tug'iladi. SHu tarzda bola ijtimoiy turmush hayotini o'zlashtirib boradi.

Ijtimoiy rivojlanish – bu bolaning o'zi yashab turgan jamiyatning urf-odatları, madaniy boyligini egallash jarayonidir. O'yin va mashqlar orqali, kattalar va tengdoshlari bilan hamkorlik jarayonida yashashni, ularning qiziqishi, jamiyatdagi qoida va me'yorlarni hisobga olishni o'zlashtiradi. Atrofdagilar bilan munosabatda bo'lib, bolalar, asta-sekin ularning o'z fikrlari, his-tuyg'ulari haqida tasavvurlarga ega bo'lib boradi.

Bolaning maktabdagi ta'limga motivatsion-psixologik tayyorligi manzarasida – bolaning kattalarga, o'z tengdoshlari va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatining to'g'ri shakllanishi uning yangi ijtimoiy-sharoitga moslashishi uchun mustahkam poydevor hisoblanadi. Zero, bu xususiyatlar bo'lg'usida bolaning maktab ta'limining real jarayonlari bilan, shuningdek bolalarda o'quv faoliyatini shakllantirishga qaratilagan.

Muloqotning rivojlanishi, tengdoshlari bilan do'stona, samimiy munosabatning shakllanishi - bola ijtimoiy rivojlanishing muhim omillaridandir. Bolaning tug'ilgandan maktabgacha davrida bolada tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlar ko'lami: bir – biridan shakli, mazmuni, umumiy hayot faoliyati jarayonidagi o'rni, shuningdek bolaning psixik rivojlanish mazmuni bilan ajralib turuvchi bir necha davrni o'taydi.

Bola 4 yoshlardan boshlab o'z tengdoshlari bilan muloqot qilishni afzal ko'radi. Bu yoshdagi bolalarning etakchi faoliyati – syujetli – rolli o'yindir. Syujetli-rolli o'yinlar bolalarning kattalar bilan ixtiyoriy, erkin munosabat va

muloqotini shakllantirishga samarali ta'sir ko'rsatadi. Bunday o'yinlar jarayonida bolalarning o'z ixtiyori va hohishiga ko'ra rollarni tanlashi, bir-biri bilan o'zaro kelishuv, sa'y-harakatlarining mutanosibli, mustaqil syujetni tanlashiga imkon berish, ularda muloqotning rang-barangligini, ixtiyoriy va erkin muloqotini ta'minlaydi.

A.N.Leont'ev esa: „Qoidalarni o'zlashtirish – bu o'z xulqini egallash, uni boshqara olish, uni ma'lum bir vazifaga bo'ysundirishga o'rganish demakdir. Maktabga o'qishga borganda bu qobiliyat bola faolligini o'quv vazifasiga, o'quv maqsadlariga bo'ysunish imkoniyatlarini yaratadi. Shuning uchun maktabgacha yoshda qoidali o'yinlarning rivojlanishi o'quv faoliyati asoslarini shakllantirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Qoidali o'yin tabiiy va qonuniyatli tarzda bolaning u yoki bu o'yinni o'rganish, uning tamoyillari va qoidalarini o'zlashtirish, uning usullarini egallashdan iborat bo'lgan faoliyatga etaklaydi. Bo'lajak o'yin turiga tayyorlanishdan iborat bo'lgan motivatsiya turi maktabgacha yoshdagi bolalarda o'quv faoliyatlari turlariga juda o'xshash bo'ladi. Ya'ni o'yin qoidalarini o'zlashtirib olishga qaratilgan faoliyat o'z mohiyati va mazmuniga ko'ra to'laqonli o'qish faoliyatiga yaqin bo'ladi. Bunday motivatsiya o'qish faoliyati bolalar tomonidan majburiy faoliyat tarzida emas, balki ularni qiziqarli va ehtiyojlariga javob beradigan faoliyatdek qabul qilinadi“.(81)

L.S.Vigotskiyning fikricha, ta'lim-tarbiya jarayoni psixik taraqqiyot jarayoniga mos kelmaydi. Bola ijtimoiy tajribani ta'lim-tarbiya jarayonida o'zlashtirib, rivojlanadi. Demak, ta'lim-tarbiya jarayoni har doim psixik taraqqiyotdan bir qadam oldinda boradi. Ta'lim-tarbiya jara-yoni bolaning psixik taraqqiyoti uchun sharoit yaratib, zamin hozirlaydi, ya'ni ijtimoiy ta'lim-tarbiya jarayoni psixik taraqqiyotni o'z ketidan etaklab boradi. L.V.Vigotskiy ta'lim-tarbiyaning faol ta'siri bilan yuzaga keladigan psixik taraqqiyotning ikkita zonasini (bosqichini) belgilab beradi. Bu zonalardan birinchisi : psixik taraqqiyotning „**yaqin zonasi**“ bo'lsa, ikkinchisi – psixik taraqqiyotning „**real**

zonasidir“. Uning izohlashiga ko'ra, psixik taraqqiyotning „yaqin zonasi“da bolaning psixik taraqqiyoti katta odamlarning (otalar, tarbiyachilar, o'qituvchilar va boshqalar) bevosita ta'sirida, rahbarligida amalga oshiriladi. Bola va kattalarning o'zaro munosabatlari bolalik davridagi psixik taraqqiyotning muhim manbai deb izohlanadi. Bola bugun kattalar yordamida bajarayotgan ishlarini ertaga mustaqil bajara oladi. U o'z ishlarida „bola-bola“ va „bola – kattalar“ munosabatlarining bolalar ruhiy rivojlanishidagi o'zaro aloqasi va o'zaro munosabatlarini qayd etib o'tadi. Bolaning go'daklik, ya'ni yasli, bog'cha va kichik maktab yoshidagi davrlari psixik taraqqiyotning „yaqin zona“siga to'g'ri keladi.

Psixik taraqqiyotning „real zona“si – bu, muayan davrda bolaning katta yoshdagi kishilarning yordamisiz mustaqil harakat qila olishi bilan ifodalanadi. Psixik taraqqiyotning „real zona“si – o'zlashtirilgan bilimlar, ko'nikmalar va malakalardan mustaqil foydalanish bosqichidir. Psixik taraqqiyotning „real zona“siga ontogenezning o'smirlik va o'spirinlik davrlari to'g'ri keladi. Bu davrda bolaning ta'lim jarayoniga bo'lgan munosabatlari tubdan o'zgarib, ular turli narsalarga nisbatan tanlab munosabatda bo'la boshlaydilar. O'smir bolalarda qiziqish va dunyoqarash kabi shaxsning murakkab sifatleri tarkib topa boshlashi tufayli turli sohalarga doir bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga o'rinish yuzaga keladi. Vaholanki, ta'lim-tarbiya psixik taraqqiyotdan bir qadam oldinda borib, psixik taraqqiyotga zamin hozirlar ekan, to'g'ri yo'lga qo'yilgan ta'lim-tarbiya jarayoni hamma vaqt o'quvchilarni mustaqil mushohada yuritishga, tabiat hamda jamiyatdagi narsa va hodisalarga doir qonuniyatlarni o'zlashtirishga yordam beradi.(39,40)

Umuman sobiq Ittifoq psixologlari A.A.Bodaleva, A.V.Zaporojets, M.I.Lisina, A.G.Rudskaya, Z.M.Bogoslovskaya, E.O.Smirnova va boshqalar „muloqot“ - inson munosabatlarining muhim sharti ekanligi, uni ontogenezda bola psixik rivojlanishining muhim manbai va asosiy omili sifatida e'tirof etishadi. Xususan, E.O.Smirnova bolani maktabga psixologik tayyorligining

shakllanishida uning kattalar bilan bo'lgan shaxsiy muloqotining ta'sirini kuzatib, tegishli xulosalar chiqaradi. (129)

Mazmunli muloqot jarayonida bola katta kishilar bilan dunyodagi narsa va hodisalarning kelib chiqishi, o'zni va ahamiyati haqidagi ma'lumotlarni egallab boradi. Bu muloqotning asosiy mohiyati, bolaning katta odamlardan yangi ma'lumotlar olishga, atrofdagi odamlardan turli ko'rinishlarini muhokama qilishga intilishadi.

Shaxsiy muloqot davomida bola o'zining his-tuyg'ularini, ehtirosu-ichki holatlarini namoyon qiladi, o'zi haqida ko'proq ma'lumot olishga, maqtovlar eshitishga intiladi. Bu muloqot turida bolaning o'zaro tushunish va kechinmalarga bo'lgan ehtiyoji ortib boradi.

Bola maktabdagi tayyorlov davriga kelib ancha mustaqil bo'ladi, kattalarga, atrofdagilarga nisbatan munosabati o'zgaradi. Bu bolaning o'zini va tengdoshlarining muvaffaqiyatlari va kamchiliklarini birmuncha anglab etishga imkoniyat beradi. Bu davrda o'z-o'zini baholash ham faol rivojlanadi. Bolaning o'z-o'zini baholashi ko'p jihatdan bog'cha va maktabdagi tarbiyachilarning baholashlari muhim rol o'ynaydi. Kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, o'z-o'zini yuqori baholaydigan bolalar bir xil sharoitlarda o'zlarini past darajada baholaydigan bolalarga nisbatan o'zlarini bolalar jamoasida dadil, erkin va ishonch bilan, o'z oldilariga yuqori maqsadlarni qo'yishlari bilan ajralib turishar ekan.

G.G.Kravtsov va E.E.Kravtsovalar maktabdagi ta'limga psixologik tayyor bo'lmagan bolalar ruhiyatiga tahdid soluvchi qiyinchiliklarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganib, ularni uchta asosiy guruhga tasniflashadi, ular:

1. Bolalarning o'qituvchi mavqeini, uning vazifa va rolini to'liq anglab etmasligi oqibatida;
2. Bolalarda etarli darajada muvqqot ko'lamining rivojlanmaganligi hamda atrofdagilari bilan o'zaro hamkorlik qila olmaslik qobiliyatining etishmasligi oqibatida;

3. Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'z-o'ziga nisbatan munosabatining to'g'ri shakllanishi oqibatida o'z imkoniyat va qobiliyatlariga, faoliyati va uning natijalariga to'g'ri baho berishi oqibatida va shu singarilar.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, bu uch guruhdagi qiyinchiliklar maktabga kompleks tayyorligining uchta asosiy sohasiga, bolaning kattalar bilan munosabati, o'z tengdoshlari va o'z-o'ziga nisbatan munosabatlarining shakllanganligining o'ziga xos tomonlarini tashkil etadi. (76)

L.A.Venger, A.P.Venger, V.V.Xolmovskaya va YA.YA.Kolominskiylar bolaning maktabga psixologik tayyorligini uchta komponentga bo'lishadi, bular :

1. Shaxsiy tayyorlik. Bu komponent bolada yangi ijtimoiy vaziyatni, qator huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan o'quvchilik mavqeini qabul qilishga tayyorligini o'z ichiga oladi. Shaxsiy tayyorlikdagi eng muhim jihati bu – „bola ichki vaziyat“larining shakllanligi yoki „motivatsion tayyorgarlik“, ya'ni maktabga borish istagi, unda kattalar va tengdoshlari bilan munosabatda bo'lish, turli topshiriqlarni bajarish, tengdoshlariga ko'maklashish singari ehtiyojlar bilan bog'liq sabablarga ko'ra uyg'onishdir.

Maktab ta'limiga tayyor bo'lgan bolalarni asosan maktabning tashqi qiyofasi, ko'rinishlari emas, balki yangi bilimlarni egallash va bu bilimlar orqali turli qiziqishlarining shakllanganligi bilan ham belgilanadi. Maktabdagi ta'limning boshlanishiga bolada barqaror emotsional holati shakllangan bo'lishi kerak.

2. Intellektual tayyorgarlik. Bu komponent bolada ma'lum darajada bilimlarni va dunyoqarashning shakllanganligini o'z ichiga oladi. Bola rejali tarzda idrok qilishni, tafakkurning ko'rgazmali – obrazli turlarini, mazmunli yod olishlarni bilishi kerak.

3. Ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik. Mazkur komponent boshqa bolalar hamda o'qituvchi bilan muloqot qila olishi uchun zarur bo'lgan sifatlarning shakllanganligini o'z ichiga oladi. Bola o'quvchilar jamoasida hamkorlikda faoliyat yuritir ekan, u o'z hamsinflari bilan muloqotga erkin kirib

keta olishga, birgalikda harakat qilishi, o'zgalarga yon berishi yoki o'zini himoya qilish malakalariga ega bo'lishi kerak. Bu komponent bolalarda boshqalar bilan munosabatga kirishish istagini, bolalar guruhining qiziqishlari va odatlariga bo'ysunishga o'rgatadi. Bir vaqtning o'zida maktab ta'limiga tayyorgarlik tushunchasiga o'quv faoliyatining muhim shart-sharoitlari va asoslarining shakllanganligi ham kiradi.

Bolaning maktaga tayyorligini ko'rsatuvchi muhim mezonlardan biri- bu bolaning kattalar hamda o'z tengdoshlari bilan bo'ladigan muloqotidagi ixtiyoriylik, erkinlikning shakllanishidir. Bularning barchasi bolaning kelgusida o'quv masalalarini to'g'ri idrok qilishi uchun zarur komponentdir. Bu birinchidan, bolaning tengdoshlari bilan munosabatlarning rivojlanganligi bolaga umumiy o'quv faoliyatida uyg'un harakat qilishga, ikkinchidan o'quv harakatlarining rivojlanishlari bilan chambarchas bog'liqdir. (31,32,71)

Bolaning maktabga psixologik tayyorligini ta'minlashda uning aqliy, shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorligidan tashqari uning irodaviy tayyorligi ham muhim ahamiyatga egadir. Chunki bu sifatlarsiz bola o'z xulqini, hatti-harakatlarini ongli ravishda boshqara olmaydi, dars va turli mashg'ulotlarda o'zini tuta olmaydi. 6 yoshli bolada irodaviy hatti-harakatlarning asosiy elementlari: aniq maqsad qo'ya olish, qaror qabul qilish, hatti-harakatlar rejasini belgilash, o'z faoliyati natijalarini to'g'ri baholash va shu kabi sifatlar qisman bo'lsada shakllanadi. Biroq bu yoshda bola irodasini rivojlantirish tarbiyachi va pedagoglardan yuksak mahorat va ehtiyotkorlikni talab qiladi.

BOB BO'YICHA XULOSALAR

Inson – biosotsial mavjudot sifatida, uning psixik rivojlanishi va to'laqonli shakllanishi murakkab tadqiqot jarayonidir. Zero, uning o'ziga mansub xususiyatlari va qonuniyatlarini asosli, ilmiy bilish bola shaxsiga samarali ta'sir ko'rsatishning zarur shartidir. Inson shaxsining tarkib topishi va uning psixik rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning muammosi o'z mohiyati va dolzarbligi jihatidan g'oyaviy ma'noga egadir. Shu sabab, mazkur masala o'z echimini

topishi jarayonida bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan turli nazariyalar, oqimlar va yo'nalishlarni maydonga keltirishga sabab bo'lgan.

Mazkur bobda biz ayni shu muammoning tarixiy, ijtimoiy- falsafiy jihatlarini baholi qudrat tahlil qilishga, ulardan tegishli xulosalar yaratish bilan birga, inson shaxsining naqadar mukammal ekanligini, ayniqsa hozirgi kunda jamiyatimizda kechayotgan demokratik o'zgarishlar zahirida uning ijtimoiy mohiyatining yanada yuksalishiga ta'sir etuvchi omillarning mohiyatini ko'rsatishga urindik.

Ta'kidlash joizki, AQSH va Evropa. shuningdek rus psixologlari tomonidan bu sohada olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlar hozirga qadar boy nazariy va amaliy tajribalar to'planganligidan dalolat beradi. Sir emas, hozirgi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan umumta'lim va o'rta maxsus ta'lim-tarbiya muassasalari, ijtimoiy institutlar, shuningdek turli shakldagi maktabgacha tarbiya muassasalari farzandlarimizni yangi, demokratik keskin ijtimoiy - iqtisodiy o'zgarishlarga uyg'un, hamohang moslashuvini ta'minlash maqsadida ana shunday boy tajribadan foydalanib kelmoqda va bu jarayon hozirgi kunda o'zining samarasini berib kelmoqda.

Shu ma'noda, tahlil va kuzatishlarimiz bu borada qilinishi zarur bo'lgan turkum vazifalar o'zining to'laqonli echimini topmaganligi aniqlandi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning maktabga psixologik, motivatsion, morfologik, intellektual xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan psixologik-pedagogik hamda maxsus ilmiy-ommabop adabiyotlar tahlili quyidagi xulosalarni yaratishga asos bo'ldi :

1. Bolalarni maktabga umimetuklik va aqliy rivojlanganlik darajalarini o'rganish muammosi uzoq tarixga egadir;
- 2.Mazkur muammoning yoritilishi turli olimlar tomonidan, o'z davrlarida o'ziga xos tarzda talqin etilgan;

3. Muammoning ibtidosi bolalarning ijtimoiy-psixologik etukligiga ta'sir etuvchi omillar, bu borada maxsus ta'lim-tarbiya muassasalarining o'ri, shuningdek bolaning o'zga sifatleri orasidagi mushtaraklikni aniqlash;

4. Yigirmanchi asrning 50- 60 yillaridan boshlab mazkur muammo olimlar tomonidan ilmiy-nazariy xulosalarga asoslangan aniq metodikalar yordamida amalga oshirila boshlangan;

5. Mazkur muammo dastlab uzoq va yaqin xorijiy mamlakatlarda nazariy va amaliy jihatdan ko'proq o'z echimini topgan va hayotga tadbiq etila boshlangan;

6. O'tkazilgan tadqiqotlardan olingan ma'lumotlar hamda mavjud tajribalar mahalliy sharoitlarda keng doirada qo'llanilmagan.

7. Bolalarni maktabga ijtimoiy-psixologik jihatdan tayyorlik muammolarini tadqiqot qilishga bag'ishlangan zamonaviy talqindagi ilmiy-tadqiqot ishlari uchramaydi;

Yuqorida zikr etilgan xulosalarimiz, tahlil va kuzatishlarimiz maktabgacha yoshdagi bolalarning maktabdagi ta'limga ijtimoiy-psixologik jihatdan tayyorligi hozirgi kunda dolzarb muammolardan ekanligi bizni bu borada yanada samarali tadqiqot olib borishimizga sabab bo'ldi.

II BOB. MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGAGA MOTIVATSION-PSIXOLOGIK TAYYORLIGINING MUHIM SHARTLARI

1§ Bolalarni maktabga ijtimoiy-psixologik tayyorligiga ta'sir etuvchi ustuvor omillar.

Inson shaxsining psixik taraqqiyoti, uning shakllanishi va bu jarayonda unga ta'sir ko'rsatuvchi ustuvor omillar haqidagi ta'limotlar asrlar davomida o'z mohiyatiga ko'ra sinfiy xarakterga ega ekanligini isbotlab kelmoqda. Ta'kidlash joizki, bu borada to'planib kelinayotgan boy nazariy va amaliy ma'lumotlar ma'lum darajada o'z ta'sir kuchlarini ham ko'rsatib kelmoqda.

Bola psixik xususiyatlarining tug'ma tabiati haqidagi **biogenetik kontsepsiya** 19 asrning ikkinchi asrida paydo bo'lib, bu maktab inson psixikasining barcha umumiy va individual xususiyatlari tabiat tomonidan belgilangan, uning biologik tuzulishiga tenglashtirilgandir, psixik rivojlanish esa, irsiy yo'l bilan azaldan belgilanib, inson organizmiga joylashtirilgan shu xususiyatlarning maromiga etilish jarayonidan iborat deb ta'kidlaydi. Ma'lumki, nasliy xususiyatlar tug'ma yo'l bilan nasldan naslga tayyor holda beriladi, biroq, mazkur kontsepsiya inson shaxsi va uning barcha xususiyatlari „ichki qonunlar“ asosida, ya'ni nasliy xususiyatlar negizida maydonga keladigan narsa, deb ta'kidlaydilar.

Biogenetik ta'limot inson qobiliyatlarining rivojlanish darajasi (shaxs imkoniyatlarining chegarasi, uning eng yuksak darajasi) taqdir tomonidan belgilab qo'yilganini, o'quvchining imkoniyatlari va qobiliyatlari maxsus testlar yordamida aniqlab, undan so'ng ta'lim jarayonini uning irsiyat tomonidan belgilangan taraqqiyot darajasiga moslashtirish, ularning aqliy iste'dod darajalariga qarab turli mavqedagi maktablarda tahsil olish zarur deb aytadi.

Mazkur kontsepsiyaning targ'ibotchilaridan amerikalik psixolog E.Torndayk o'quvchilarning „tabiiy kuch“lari va „tug'ma mayl“larini psixik rivojlanishning etakchi omili sifatida ko'rsatib, muhitning, ta'lim-tarbiyaning ta'sirini – ikkinchi darajali, deb ta'kidlaydi.(131)

Avstraliyalik psixolog K.Byuller esa, bolalarning faqat aqliy taraqqiyoti emas, balki axloqiy rivojlanishi ham nasliy tomondan belgilanganligini targ'ib etadi. (47)

Amerikalik pedagog va psixolog Dj.D'yui – inson tabiatini o'zgartirib bo'lmaydi, odam irsiyat vositasida hosil qilgan ehtiyojlari va psixik xususiyatlari bilan tug'iladi. Bu xususiyatlar va ehtiyojlar tarbiya jarayonida namoyon bo'lib, ba'zida o'zgarishi, tarbiyaning esa miqdorini belgilab beruvchi mezondir, deb hisoblaydi. (47)

Bu singari ta'limotlar, xususan din ulamolari tomonidan keng foydalanishga, insonning faolligini so'ndirishga urinishdan o'zga narsa emasdir.

Inson shaxsining tarkib topishini o'rganish davomida yuzaga kelgan yana bir nufuzli ta'limot – **sotsiogenetik kontsepsiya** tarafdorlari, inson qobiliyatlarining taraqqiyotini faqat atrof-muhitning ta'siri natijasida kechishini e'tirof etadi.

Bu yo'nalish o'z zamonasi uchun ilg'or hisoblangan 18 asrning frantsuz olimi K.Gel'vetsiy ta'limotidan boshlangan. K.Gel'vetsiyning ta'limotiga ko'ra, barcha odamlar aqliy va axloqiy rivojlanishlari uchun tug'ilishdanoq bir xil tabiiy imkoniyatlarga ega bo'ladilar. Odamlarning psixik xususiyatlaridagi farq va tafovutlar ijtimoiy muhit va ta'lim-tarbiyaning turlicha ta'siri qilish oqibatida vujudga keladi, deb tushuntiriladi. Mazkur nazariya odamlarning psixik, ruhiy ijtimoiy tengsizligi ularning tug'ma xususiyatlari degan ta'limotga qarama-qarshi qo'yilgandir.(45)

Inson psixikasining tarkib topishini o'rganishda vujudga kelgan sotsiogenetik nazariya fanda eksperimentlarning paydo bo'lishiga asos bo'ldi. Ularning ta'kidlashicha, insonning butun taraqqiyoti, undagi shaxsiy xususiyatlarning tarkib topishi, asosan, uning tajribalari samarasidir deydi. Bu nazariyaga muvofiq, shaxsda ro'y beradigan o'zgarishlari jamiyatning tuzilishi, ijtimoiylashish usullari, uning atrofidagi odamlar bilan o'zaro munosabat vositalari asosida izohlanadi. Bu ta'limot, insonni biologik jon sifatida tug'ilib, o'z hayotidagi ijtimoiy shart-sharoitlarning bevosita ta'siri ostida u shaxsga aylanib boradi.

Chunonchi, ingliz olimi Djon Lokk dunyoga kelgan yangi chaqaloqning ruhini „top-toza“ taxtaga o'xshatadi. Uning fikricha, bolaning „top-toza“ taxta tarzidagi ruhiga nimalarni bitish mutlaqo kattalarning ixtiyoridadir. Shaxsning kelajakda qanday inson bo'lib etishishi ko'p jihatdan uning hayotdan olgan tajribalari, ko'rgan kechirganlari, atrofini o'rab turgan ijtimoiy muhitning tuzilishiga bog'liqdir.(47)

Tahlil va kuzatishlar jarayonida, odamdagi tug'ma, irsiy mexanizmlari uning psixik rivojlanishiga o'zining munosib ta'sirini ro'rsatadi-yu, biroq uning mazmunini ham, shaxsiy fazilatlarini ham belgilab bera olmaydi. Shu o'rinda, ta'kidlash joizki, ijtimoiy muhit ham bola psixikasi rivojlantirishda muayayn rol o'ynaydi. Biroq, buning uchun bolani o'qitayotgan kishilarning ta'siri natijasida bola ana shu mug'itni faol ravishda o'rganib olishi, tabiiydir.

Inson psixik shakllanishi va taraqqiyoti haqidagi zamonaviy metodologik yondashuvlar va ta'limotlar inson shaxsining tarkib topishini, asosan, uchta omilning o'zaro ta'siriga bog'liqligini ilmiy asoslab berishga urinadi. Ular:

birinchisi – inson tug'ilib, voyaga etgan tashqi ijtimoiy muhitning ta'siri;

ikkinchisi – odamga uzoq muddat davomida muntazam beriladigan ta'lim-tarbiyaning ta'siri;

uchinchisi – odamga tug'ma ravishda, irsiy yo'l bilan beriladigan nasliy xususiyatlarning ta'siri oqibatidadir.

L.S.Vigotskiy, A.N.Leont'ev, S.L.Rubinshteyn, R.Natadze, L.I.Bojovich, D.B.El'konin, V.V.Davidovlarning ta'kidlashicha – kishi hayoti davomida ijtimoiy ong va xulq-atvor shakllarini o'zlashtirishi zamirida shakllanib, yaxlit psixologik strukturani tashkil etadi.

Darhaqiqat, shaxsning butun hayoti davomida uning to'laqonli shakllanishi turli omillar ta'sirida kechadi. Shu bois, mavjud barcha omillarni, shart-sharoitlarni makrofaktorlar, mezofaktorlar, mikrofaktorlar, shuningdek sub'ektiv faktorlarning roli va ta'sir kuchlarini nazarda tutish maqsadga muvofiqdir. Zero, bola tarbiyasi va uning komil inson bo'lib etishishida unga sistemali yondashishni taqozo etadi. Shu o'rinda, ba'zi etakchi omillarga izoh berish, fikrimizcha, maqsadga muvofiq bo'ladi:

Makrofaktorlar –bola yashab turgan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hamda g'oyaviy tizimi nazarda tutiladi. Mustaqilligimiz sharofati, jamiyatimizda ta'lim-tarbiya borasida o'zining boy nazariy va amaliy an'analarimiz, urf-odatlarimiz, boy tarixiy ma'naviy meroslarimiz yana o'zini

namoyon qilish, tiklash imkoniga ega bo'ldi. Yosh avlodni tarbiyalash borasida ijtimoiy institutlar, maktab va turli shakldagi o'quv-tarbiyaviy muassasalar bu borada samarali faoliyat yuritib kelishmoqda. Ularning barchasi yosh avlodga bilim berishda, tarbiyalashda o'zining munosib ulushini qo'shib kelishmoqda. SHular ta'sirida bolada o'zi yashab turgan jamiyat haqida, avlodlari, uzoq o'tmish tarixi haqida boy ma'lumotlarga ega bo'lib kelishmoqda.

Mezofaktorlar – bola shaxsi yashab turgan mintaq (Evropa, Osiyo, O'rta Osiyo va shu kabilar)ning ta'siri oqibatida shakllanishi nazarda tutiladi. Mazkur omillar bola yashab turgan mintaqaning ijtimoiy-demografik, milliy-madaniy (Katta va kichik shaharlar, sanoat shaharlari, madaniy-hordiq chiqarish joylari, katta va kichik qishloqlar va shu kabilar) shart-sharoitlarini tashkil etib, bu omillar bola yashab turgan tub aholining ijtimoiy-kasbiy tarkibini, ijtimoiy-madaniy ta'sirini o'rganadi.

Mikrofaktorlar – bolani bevosita qurshab turgan muhit: uning oilasi, qo'ni-qo'shnilari, mahallasi, maktab, mikrohududlar, shuningdek o'sha hududda joylashgan madaniy, o'quv-tarbiyaviy muassasalar, jamoalarning ta'sir kuchlari nazarda tutiladi. Bu xususiyatlar bolaning kundalik ongiga bevosita ta'sir etuvchi, uning kundalik hayotini ayni shu axloq norma va qadriyatlari bilan mutanosib rivojlanishini belgilab beradi.

Sub`ektiv faktorlar – bu omillarning birlamchisini boladagi mavjud tabiiy layoqatlari tashkil etsa, ikkinchisi – bolaning individual xarakter xususiyatlari tashkil etadi.

Zikr etilgan omillar ta'sirida bolaning turli yosh davrlarida o'ziga, o'zgalarga, atrof-muhitga nisbatan munosabatlari shakllanadi. Shartli ravishda bunday omillarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- 1) Intstitutlar – turli ijtimoiy institutlar tufayli;
- 2) An`anaviy – bolaning oilasi va uni o'rab turgan ijtimoiy muhit tufayli;
- 3) Yosh davriga xos madaniy tizim tufayli;

- 4) Shaxslararo – bola uchun ahamiyatli shaxslar tufayli;
- 5) Refleksiv – individual boshidan kechirganlari va anglashi tufayli.

Mavjud nazariyalar va ta'limotlar ma'lum darajada bizning tadqiqotlarimizga ham o'z ta'sirini ko'rsatishi, tabiiydir. Fikrimizcha, agarda shaxsning to'laqonli shakllanishida faoliyat muhim ahamiyat kasb etsa, shaxsning ontogeneza ulg'ayib borishi bilan etakchi faoliyat turlarining ham mazmun va mohiyat jihatidan tadrijiy o'zgarishi, tabiiydir. Mazkur jarayon muayyan tizim va tadrijiy holda kechishi sabab, biz ushbu muammoga sistemali yondashishni maqsadga muvofiq deb bildik.

Olib borilayotgan tadqiqotlarimizning xolisona va adolatligini ta'minlash maqsadida mazkur masala doirasidagi akademik, ilmiy va metodik manbalardan, malakali test zahiralaridan, maxsus, tadqiqotlarimiz uchun muvofiqlashtirilgan „Sotsiologik so'rovnoma“lardan, shuningdek nufuzli hakamlarning ham bu boradagi tegishli fikr-mulohazarlari atroflicha o'rganildi.(Ilova qilinadi)

Tadqiqotda ko'zlangan maqsadga erishish uchun biz tadqiqotlarni bir necha bosqichda o'tkazdirishni maqsadga muvofiq deb bildik.

Uning dastlabki bosqichida turli ijtimoiy toifadagi ko'p yillik pedagogik va hayotiy tajribaga ega bo'lgan 24 – nafar nufuzli hakamlar tanlab olindi.

Ular quyidagi № 1 jadvalda o'z aksini topgan:

Tadqiqotga jalb qilingan nufuzli hakamlar (% hisobida)

Jadval № 1

<i>№</i>	<i>Nufuzli hakamlar</i>	<i>I</i>		<i>II</i>		<i>III</i>	
		<i>soni</i>	<i>%</i>	<i>soni</i>	<i>%</i>	<i>soni</i>	<i>%</i>
1	Boshlang'ich sinf o'qituvchilari	6	25	3	25	3	21,4
2	Metodistlar	4	16,6	2	16,6	1	7,1
3	Pedagog-tarbiyachilar	6	25	3	25	4	28,5

4	Trenerlar	3	12,5	2	16,6	3	21,4
5	Ota-onalar	5	20,8	2	16,6	3	21,4
Umumiy soni		24		12		14	


Izoh:

- I guruh – 15-25 yillik tajribaga ega hakamlar;
- II guruh -5-15 yillik tajribaga ega hakamlar;
- III guruh – 5 yilgacha tajribaga ega bo'lgan hakamlar.

Olingan natijalarning tahlili diagrammada quyidagicha ifodalandi.

Nufuzli hakamlarning o'zaro nisbatlar (% hisobida)

Diagramma №1



Tadqiqot uchun saralab olingan nufuzli hakamlarning nisbati quyidagicha ifodalandi (umumiy miqdorga nibatan - % hisobida) :

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari :

- I guruhda - 25% ni,
- II guruhda – 25 % ni,

III guruhda – 21,4% ni;

1. Metodistlar :

I gurudga – 16,6 % ni,

II guruhda – 16,6 % ni,

III guruhda – 7,1 % ni ;

3. Pedagog – tarbiyachilar :

I gurudga – 25 % ni,

II gurudga – 25 % ni,

III gurudga – 28,5 % n

4. Trenerlar :

I guruhda – 12,5 % ni,

II guruhda – 16,6 % ni,

III guruhda – 21,4 % ni;

5. Ota – onalar :

I guruhda – 20,8 % ni,

II guruhda – 16,6 % ni,

III guruhda – 21,4 % ni tashkil etdi.

Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatib turibdiki, turli pedagogik va hayotiy tajribaga ega bo'lgan ijtimoiy qatlam vakillari bizga o'z fikrlarining ko'lami, rang – barangligi, muqobilligi samarasi o'laroq mazkur muammoaga oydinlik kiritishga birmuncha imkon beradi. Tadqiqotga jalb etilgan nufuzli hakamlarning barchasi ma'lum darajada maktabgacha yoshdagi yoki boshlang'ich sinflarda tahsil olgayotgan bolalar bilan hamkorlikda faoliyat yuritayotgan, yaqindan muloqotda bulayotgan shaxslardir. SHu ma'noda, bizning ularga murojaatlarimiz birmuncha yuqori samara beradi degan umid baxsh etdik.

Ma'lumki, yirik rus psixologlari A.N.Leont'ev, S.L.Rubinshteyn, A.V.Zaporojets, D.B.El'koninlarning ilmiy ishlarida „Bola faoliyati -uning psixik taraqqiyoti uchun muhim omil hisoblanadi“ degan fundamental ta'limoti fanning

rivojlanishida muhim o'rin egallaydi. Bu g'oya aksariyat tadqiqot va ilmiy yo'nalishlar uchun ko'rsatma sifatida hozirga qadar xizmat qilib kelmoqda.

A.N.Leont'evning fikricha: „Bolaning psixik taraqqiyoti – avlodlar tajribasini anglash va ularni o'zlashtirishdan iborat xususiy jarayondir. Bu jarayon bolaning atrof-muhitga va hodisalarga nisbatan munosabatlarida, ularni o'zlashtirish jarayonidagi faoliyatida amalga oshadi. Ana shunday faol motivlashgan faoliyatdagina bola shaxsi shakllanib boradi“, - deb ta'kidlaydi. (81)

Zikr etilgan fikr-mulohazalar bola shaxsining psixik bichimi, tuzilishi uning faoliyat mahsuli ekanligi, bu ko'p jihatdan ijtimoiy hayot tarzi va shart-sharoitlarining nechog'lik taraqqiyotiga bog'liq ekanligi haqida xulosa yaratishga asos bo'ladi.

Muammoga oid tadqiqotdan ko'zlangan maqsadlarimizdan biri maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganishdan iborat bo'ldi. Ma'lumki, hozirgi zamon sharoitida shaxs intellektual, ijtimoiy-psixologik salohiyatini kamol toptirishning turli shakllari mavjuddir, chunonchi, maktabgacha tarbiya muassasalari, xususiy va davlat tasarrufidagi ijtimoiy institutlar va boshqa shu singari qator tashkilotlar bu borada ulkan ishlarni amalga oshirib kelishmoqda. Faoliyat yuritib kelayotgan barcha ta'lim va tarbiya muassasalarining asosiy maqsadi ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni yangi hayotga to'laqonli qilib etishtirish, uning kelajakda o'z o'rnini topa olishga qaratilgandir. Ana shunday rang-barang: muhit, oila, mahalla va boshqa shu singari ijtimoiy institutlarning bolalarga ta'sir etish mavqeini o'rganish maqsadida biz keyingi bosqichda quyidagi tadqiqotlarni o'tkazdik.

Tadqiqotlarimizning bu bosqichida biz yuqorida nufuzli hakamlar sifatida saralab olingan turli ijtimoiy qatlam vakillariga maxsus sotsiologik so'rovnoma asosida: „Bolalarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni 5 – balli mezon asosida baholang“, - deb murojaat qildik. (Ilova №1)

Mezonlar:

1 - ball - juda kam ,

- 2 - ball - kamroq,
 3 - ball - o'rtacha,
 4 - ball - kuchliroq,
 5 - ball - juda kuchli

Bolalarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar
 (Nufuzli hakamlarning 5 – balli mezoni natijalari asosida)

Jadval № 2

<i>№</i>	<i>Omillar</i>	<i>O'rtacha qiymati</i>	<i>Absolyut rangi</i>
1	Ijtimoiy muhit – (<i>x – faktor</i>)	$\bar{x} - 3,04$	4
2	Maktabgacha muassasalar (sport seksiyalari, to'garak va boshqalar) – (<i>y – faktor</i>)	$\bar{y} - 4,04$	1
3	Bolalar bog'chasi – (<i>z – faktor</i>)	$\bar{z} - 3,96$	2
4	Ko'p farzandli oilalar – (<i>u – faktor</i>)	$\bar{u} - 3,4$	3
5	Kam farzandli oilalar – (<i>v – faktor</i>)	$\bar{v} - 2,52$	5

Mazkur № 2 jadval tahlillari, bolalarning hozirgi zamonda ularning motivatsion-psixologik tayyorligiga ta'sir etuvchi omillarning mavqeini, ta'sir ko'rsatish kuchlarining ketma-ketligini ko'rsatib berdi.

Jadval natijalari va nufuzli hakamlarning ko'rsatmalariga binoan, maktabgacha muassasalari, ya'ni:

- **sport seksiyalari, san'at, texnika va boshqa to'garaklar** bolalarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga ta'sirini 1 – o'rinda ko'rishlarini e'tirof etishgan (o'rta qiymati : $y - 4,04$);

- **maktabgacha ta`lim-tarbiya muassasalarini** (yasli,bog'cha va boshqalar) – 2 o'rinda ($z - 3,96$);
- **ko'p farzandli oilalarni** -3 o'rinda ($u - 3,4$);
- **ijtimoiy muhitning ta`sir kuchini** – 4 o'rinda ($x - 3,04$) va nihoyat
- **kam farzandli oilalarning ta`sirini esa** – 5 o'rin ( $v - 2,52$ ) larda ko'rishlarini e`tirof etishgan.

Shubhasiz, miqdoriy ma`lumotlarni matematik – statistik faktor analiz qilish, ularning to'g'riligiga ishonch hosil qilish, maqsadga muvofiqdir.

Ularning **birinchisi**, ya'ni **y – faktor**, turli shakldagi sport seksiyalari, san`at, texnik va boshqa to'garaklarda faol ishtirok etib kelayotgan bolalar toifasidir. Bunday dalillarga tadqiqotimiz jarayonida bolalar bilan olib borgan individual va guruhiiy shakldagi suhbatlarimizda, ularni turli vaziyatlarda kuzatishlarimiz, shuningdek ularning ota-onalari, trenerlari, pedagog-tarbiyachilari va boshqa mutasaddi mutaxassis shaxslar bilan bu boradagi olib borgan suhbatlarimiz fikrlarimizni isbotlashga asos yaratdi.

Darhaqiqat, sport seksiyalari va turli to'garaklarda shug'ullanayotgan bolalar o'zlarining erkin harakatlari, qiyinchiliksiz o'zgalar bilan muloqotga kira olishlari, o'zlarini har qanday vaziyatlarda dadil va ishonch bilan tuta olishlari, turli faoliyatlarga erkin kirishishlari bilan ajralib turishdi. Bizning ular bilan savol-javoblarimiz ham taxminlarimizni isbotladi.

Masalan, Aziz (6 yosh, sport klubining karate seksiyasi a`zosi): „Nima uchun sport bilan shug'ullanishni o'zingga afzal ko'rding?“- degan savolimizga: „Har tomonlama sog'lom bo'lish uchun“, - deb javob berdi.

Farhod (6 yoshu 4 oy,O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish organi „Qo'l jangi“ federatsiyasi klubi a`zosi): „O'zimga ishonch bilan yurishimga yordam beradi,- degan javob berdi.

Dildora (6 yoshu 5 oy, badiiy gimnastika klubi a`zosi): „Chet mamlakatlarda bo'ladigan xalqaro musobaqalarda g'olib chiqib, yurtimiz

bayrog'ini yanada baland ko'tarishni orzu qilaman",- singari pozitiv javoblarni oldik.

Ikkinchi, z- faktor esa, maktabgacha yoshdagi ta'lim-tarbiya muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalar toifasini tashkil etadi. Ma'lumki, Respublikamizdagi barcha maktabgacha ta'lim-tarbiya muassasalari maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarning ijrosi „**Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari**“ asosida faoliyat yuritadi.

Mazkur davlat talablarida maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan ta'lim-tarbiya mazmunining asosiy yo'nalishlari hamda bolalarning maktabga tayyorlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar belgilab berilgan. Shubhasiz, ana shunday muassasalarda keng qamrovdagi malakali o'tkazdiriladigan turli shakldagi o'yinlar, mashg'ulot va treninglar samarasi o'laroq bolalarni maktabga tayyorlash sifati yuqori darajada bo'ladi. Tadqiqotimizda ko'zlangan maqsadlar doirasidagi kuzatishlarimiz, o'tkazdirgan tajribalarimiz yasli va bog'cha sharoitlarida tarbiyalanayotgan bolalarda dadillik, ishonch, ekstravertlik singari ijobiy xislatlarning namoyon bo'lishini kuzatdik. Empirik tajribalar, statistik tahlil va qo'llangan metodlarning natijalari biz taxmin qilgan farazlarning to'g'ri ekanligini yana bir bor isbotladi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, mustaqilligimiz samarasi o'laroq Respublikamizda bolalar sportiga alohida ahamiyat berilishi ularning har tomonlama barkamol inson bo'lib etishishlariga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatayotganligi bizning tadqiqotlarimizda o'z ifodasini topmoqda.

II Bolalarni maktab ta'limiga motivatsion- psixologik tayyorligining muhim ko'rsatkichlari

Tadqiqotlarimiz doirasidagi psixologik-pedagogik va maxsus adabiyotlar tahlili, kuzatishlarimiz: bolalarning maktab ta'limiga bo'lgan munosabatlarini –

ularning maktabdagi ta`lim-tarbiya jarayoniga motivatsion tayyorligining umumiy ko`rsatkichi sifatida e`tirof etishini ta`kidladi.

Darhaqiqat, agar bola maktabdagi yangi sharoitga, uning talablariga osonlik bilan, engilgina moslasha olsa, uning qiziqishlar ko`lami rang-barang va keng tus olaversa, shubhasiz, bolaning maktabdagi ta`limga motivatsion tayyorligi to`laqonli kechkanligidan dalolat beradi.

Katta bog`cha yoshidagi bolalar asosan, maktabda o`qish uchun ehtiyoj sezadilar, lekin bu xohish va ehtiyoj motive turlicha bo`lishi mumkin. **“Menga chiroyli forma, daftar, qalam va ruchkalar sotib olib berishadi”**, **“Maktabda o`rtoqlarim ko`p bo`ladi men ular bilan mazza qilib o`ynayman”**, **“Maktabda uxlatishmaydi”**. Bunday motivlarni bolalarga odatda ota-onalar singdiradilar. Maktabning tashqi ramzlari, shubhasiz bolalarni juda qiziqtiradi, lekin bu maktabda muvaffaqiyatli o`qish uchun asosiy sabab bo`la olmaydi. Ota-onalar, pedagog, tarbiyachilar tomonidan bolalarga bilish, o`rganish motivlarini singdirilishi maktabda muvaffaqiyatli o`qish omili bo`lib xizmat qila oladi. **“Men otamga o`xshagan bo`lishim uchun o`qishim kerak”**, **“Yozishni juda yaxshi ko`raman”**, **“O`qishni o`rganaman”**, **“Maktabda qiyin misollarni echishni o`rganaman”**- bunday motivlar to`g`ri motivatsion tayyorgarlikka misol bola oladi.

Psixologlar L.I.Bojovich, V.V.Davidov, D.B.El`koninlarning ta`kidlashicha, kichik maktab davrida o`quv faoliyati bolalar uchun etakchi hisoblansada, biroq o`quv faoliyatining dastlabki davrlarida bolalarning kattalar bilan muloqoti birmuncha muddat saqlanib qoladi. O`quv faoliyatining keyingi bosqichlarida esa, bolalarning o`z tengdoshlari bilan o`zaro muloqoti va munosabatlari ijobiy tomonga o`zgarib boradi. Tabiiyki, bunday ijobiy o`zgarish bolalarning maktab ijtimoiy muhitiga moslashib borayotganligi samarasidir.(23,35,52)

Tabiiyki, turli sharoitlarda voyaga etgan bolalarning yangi ijtimoiy shart-sharoitlarga moslashishi turlicha kechadi. Bolalarning maktabgacha davrida ular hayoti imkon qadar kelajakdagi o`xshash muhitlarda tarkib topsa, ularning yangi

ijtimoiy muhitga moslashishi „ogʻriqsiz“ kechishini tadqiqotlarimizning keyingi bosqichida ishonch hosil qildik. Taʼkidlash joizki, obʼektiv va subʼektiv omillarga koʻra tadqiqotimizda nufuzli hakamlarning fikr-mulohazalari biz uchun muhim ustanovka hisoblanadi. Zero, tekshiriluvchilarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olib, nufuzli hakamlarning malakali yondashuvlari ilmiy izlanishlarimizning toʻgʻri yoʻnalishda borayotganligini taʼminlaydi degan umiddamiz.

Ontogenezda bolalik davrining 3 yoshdan 7 yoshlargacha boʻlgan davri uning anchagina qismini tashkil etadi. Mana shu davrdan boshlab, asosan, bolaning mustaqil faoliyatlari rivojlanadi hamda shaxsiy individual xususiyatlari (insoniy fazilatlari) tarkib topa boshlaydi. Mashhur pedagog P.F.Lesgaftning fikricha, insonning bogʻcha yoshidagi davri shunday bir jarayonki, ana shu davr mobaynida bolaning kelgusida qanday xarakter xislatlari paydo boʻlishi belgilanadi va axloqiy fazilatlarining asoslari yuzaga keladi. SHu narsa diqqatga sazovorki, mana shu davrda qilingan ish butun tarbiya jarayonining 90% ini tashkil etar ekan. Darhaqiqat, bolaning bogʻcha yoshidagi davri shu qadar mazmundor va faol davrdirki, bu davr bolaning kelgusi oʻsishida albatta oʻz aksini topadi. Shu bois, bogʻcha yoshidagi davr taʼsir kuchi jihatidan gʻoyat masʼuliyatlidir. Pedagog-novator Sh.A.Amonashvilining taʼkidlashicha: „Bolalar juda faol mavjudotdir...Vaholanki shunday ekan, bola uchun shunday bir ijobiy muhitni uyushtirish lozimki, bu muhit bolaga tahdid soluvchi yoki quruq nasihatgoʻylik qilish uchun emas, balki ular faoliyatini sermazmun uyushtirish va mohirona boshqarishri taqozo etadi, ana shundagina koʻzlangan maqsadga erishish mumkin“. (11)

Shu maʼnoda, turli sharoitlarda voyaga etgan maktabgacha yoshdagi bolalarning ham maktabdagi taʼlimga tayyorlik darajalari turlicha boʻlishi, tabiiy holdir. Maktabda taʼlimning boshlanishi –bola uchun shaxsiy, ijtimoiy-psixologik hamda fiziologik jihatidan murakkab va masʼuliyatli davr hisoblanadi. Bu nafaqat bola hayoti va faoliyatining oʻzgarishi, balki yangi munosabatlar tizimi, muloqot

ko'lamining kengayishi, yangicha burch va huquqlari, vazifalarni ijro etishlari bilan izohlanadi.

Maktabgacha davrida *sport seksiyalari, san'at, texnika va boshqa to'garaklarda* shug'ullangan bolalarning maktab sharoitlariga motivatsion moslashuvi bo'yicha olgan ma'lumotlarimiz – 78 % ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich shu shaxsiy xislatlari o'rganilayotgan boshqa guruh bolalari orasida eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldi. Shubhasiz, yurtimizda faoliyat yuritayotgan bunday sport seksiyalari, turli shakldagi to'garaklarda muntazam shug'ullanib kelayotgan bolalarning yangi ijtimoiy shart-sharoitga moslashuvi, maktablarning ichki tartib-intizomlariga rioya qilishi, ulardan talab qilinayotgan topshiriq va vazifalarni o'z vaqtida ijro etishlari bu toifadagi bolalar uchun nisbatan tez va oson kechishini e'tirof etish mumkin.

Bu toifadagi bolalarning o'z tengdoshlari bilan o'zaro hamkorligi bo'yicha esa – 84% ko'rsatdi, tabiiyki, bolalarning noan'anaviy vaziyatlarda muloqot va munosabatlarda bo'lishlari, turli toifadagi musobaqalarda birgalikda ishtirok etishlari, ularni bir-birlariga nisbatan yanada yaqinlashtiradi, ularda hamdardlik, qayg'urish, o'zaro yordam, quvonch singari yuksak insoniy fazilatlarni shakllantiradi.

Bunday bolalarning tarbiyachi va pedagoglar bilan o'zaro hamkorliklari (bu ko'rsatkich – 86%) ham o'ziga xos tarzda kechishini kuzatish mumkin, ularning jismoniy va ruhiy muloqotlarida erkinlik, samimiylik, tortinmasdan, ishon va dadillik bilan o'z fikrlarini bildirish singari xislatlarning namoyon bo'lishini ta'kidlash mumkin.

Bu toifadagi bolalarning o'z-o'zini baholashlari va nazorat qilishlari bo'yicha ko'rsatkichlari – 78% ni tashkil etdi, ularning muntazam sport mashg'ulotlari va to'garaklarda shug'ullanishlari ularda o'zlarini boshqa bolalarga nisbatan birmuncha ishon his-tuyg'usini, ba'zida jismonan ojiz bolalarga yordam berishga, ba'zida esa biroz „manmanlik“ xislatlarini kuzatish mumkin ekan.

Bunday sharoitalarda voyaga etgan bolalarning o'z-o'zini boshqarishlari bo'yicha ko'rsatkichlari – 76 % ni ko'rsatdi. SHubhasiz, muntazam muayyan tartib va intizom bilan hayot kechirgan bolalarda o'z hayoti va faoliyatini tashkil qilish, boshqarish, uyushtirish singari zaruriy xislatlar avvalgi faoliyatning ta'siri natijasida kechishi, bu asta-sekin doimiy tus olishlari ularning keyingi hayotini ham unumli va sarmazmun o'tishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, tabiiydir. Sport o'yinlari faqat bilish jarayonlarini takomillashtirib qolmay, balki bolaning xulq-atvoriga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'z xulqini boshqarish ko'nikmalarini tarkib toptirishga bog'liq psixologik muammolarni o'rgangan Z.V.Manuylenkning fikricha, biror maqsadga yo'naltirilgan mashg'ulotga nisbatan o'yinda xulq ko'nikmalarini oldinroq va osonroq egallash mumkin. Ayniqsa, bu omil maktabgacha yoshdagi bolalarda yosh davrining xususiyati sifatida o'zining yorqin ifodasini topadi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda o'z xulqini o'zi boshqarish ko'nikmasi o'yin faoliyatida ham, boshqa sharoitlarda ham qariyb baravarlashadi. Ba`zan ular ayrim vaziyatlarda yuqoriroq ko'rsatkichga ham erishishlari mumkin. YUqoridagi mulohazalar asosida xulosa tariqasida aytish joizki, o'yin va faoliyati bolada xulqini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha tarbiya muassasalari, ya'ni ***bolalar bog'chalarida*** ulg'ayib, voyaga etgan bolalarning maktab sharoitiga moslashuvi bo'yicha ko'rsatgan shaxsiy xislatlari - 70% ni ko'rsatdi. Bog'chada bolalarning hamkorlikda ta'lim-tarbiya olishlari, birgalikda o'ynashlari va ovqatlanishlari ularda jamoatchilik tuyg'usini shakllantiradi. Ko'pchilik bo'lib bir o'yinni o'ynashi yoki biron vazifani bajarishida o'z hatti-harakatlarini kelishib olish, rollarni taqsimlash va bir-birlariga yordam berish kabi muhim jamoaviy hayotiga oid fazilatlar paydo bo'ladi. Bolalarning jamoada o'z o'rinlarini mustahkamlashda ularning jamoada endigina yuzaga kelayotgan o'zaro murakkab munosabatlari, ya'ni bir-biriga bo'ysinish, bir-biriga yon bosish kabi munosabatlar tizimi bu toifadagi bolalarda

nisbatan shakllangan bo'lib, bu xislatlar ularning yangi ijtimoiy muhitga moslashuvi uchun puxta zamin hozirlaydi.

Bog'cha yoshidagi bolalarning o'z tengdoshlari bilan o'zaro hamkorligi bo'yicha olib borgan tadqiqotlarimiz natijalari – 78% ni tashkil etdi. Bu yoshdagi bolalarning etakchi faoliyati sifatida e'tirof etiladigan ularning o'yinlarida va o'z tengqurlari bilan munosabatlarida birmuncha sifat o'zgarishlari ro'y beradi, birinchidan, bolalar o'rtasidagi o'rtoqlik, do'stlik munosabatlari mustahkamlanadi, natijada ularning hayotida jamoatchilik roli orta boradi. Ikkinchidan esa, jamoa bo'lib o'ynaydigan syujetli o'yinlarning mazmuni murakkablashishi bilan birga qoidali o'yinlarning ahamiyati orta borishini kuzatish mumkin. Bolalar qoidali o'yinlarning o'yin jarayonining o'zigagina emas, balki qoidalariga bo'ysinib, erishiladigan natijalarga qiziqishlarini tav'kidlash mumkin.

Bu toifadagi bolalarning tarbichi opalari va o'qituvchilari bilan hamkorligi darajalari ham birmuncha yuqori natijalarni berdi, bu ko'rsatkich – 82 % ekan. Bog'cha davrida bolalarning faoliyatini samarali va unumli uyushtirish, ular bilan turli faoliyat jarayonlarida doimiy muloqotda bo'lish, muhimi, bog'cha opa va tarbiyachilarning, pedagoglarning bolalar bilan o'z muloqotlarini to'g'ri va samimiy o'rnatish olish ko'p jihatdan bolalarning keyingi ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga ijobiy ta'sirini ko'rsatishi tabiiydir. Kuzatishlarimiz jarayonida bunday bolalarning kattalar bilan muloqot va munosabatlarida erkinlik, ishonch bilan boqish singari fazilatlarni uchratdik.

Bog'chada tarbiyalanib, voyaga etgan bolalarda o'z-o'zini baholashi va nazorat qilish shaxsiy xislatlarining ko'rsatkichlari – 64 % tashkil etdi. Ma'lumki, shu yoshdan boshlab bolalar bog'chalarining tarbiyaviy dasturlariga muvofiq o'quv faoliyati bilan ham muntazam shug'ullanib turishadi, bular natijasida ular masala mohiyatini anglashni, ularni bajarishning ko'nikma va malakalarini o'zida mujassamlashtiradi. O'quv faoliyatining muhim komponentlaridan biri, bu – baholashdir. Olti yoshli bolalarda bu xususiyat endi rivojlana boshlaydi. O'z

faolit natijalarini baholash nafaqat o'qish bilan bog'liq faoliyatda, balki rasmlar chizish, konstruktsiya faoliyati, applikatsiya singari jarayonlarda o'z ishlarini solishtirish, taqqoslash, o'z kamchilik va yutuqlarini asta-sekin anglab eta boshlashga imkon beradi.

Bolalar bog'chalari tarbiyalanuvchilarning o'z-o'zini boshqarishi bo'yicha shaxsiy sifat ko'rsatkichlari – 68% ni tashkil etdi. Kuzatishlarimiz jarayonida bunday bolalar xulqida pala-partishlik, tartibsizlik singari salbiy xislatlarni nisbatan kam uchratdik, zero bog'chadagi tartib (rejim) va intizom bunday bolalarga keyingi hayoti va faoliyati uchun yaxshi zamin tayyorlashi, tabiiydir.

Ko'p farzandli oilalarda tarbiyalangan bolalarning maktab sharoitiga moslashuvi bo'yicha shaxsiy xislatlari – 62% ni tashkil etdi. Serfarzand oilalardagi aka-uka va opa singillarning o'zaro hamkorligi, ularning matab ta'limi, undagi qonun-qoidalar, ichki tartib-intizomlari haqidagi turli ma'lumotlar bilan bolaning dunyoqarashini boyitib borishlari unda kelgusi hayot haqidagi tasavvurlarini boyitadi, unga g'oyibona tayyorlaydi.

Bunday turdagi oilalarda tarbiyalangan bolalarning o'z tengdoshlari bilan hamkorlik darajalari – 72% ni tashkil etdi. Bunday oilalardagi bolalarning doimiy hamkorligi, o'zaro o'yinlari, ular orasida muayyan muloqot ko'lamini vujudga keltiradi, buning natijasida bolalar fikr almashadi, o'zligini anglab boradi.

Mazkur oilalardagi muhit bolaning aka-ukalari va opa-singillarining otonalari, katta yoshdagilar, pedagog-tarbiyachilar bilan ham bo'ladigan hamkorliklari haqidagi tasavvurlarini kengaytirishga puxta zamin tayyorlaydi, shuning uchun bo'lsa kerak bu borada o'tkazdirgan ko'rsatkichlarimiz – 64 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, ko'p farzandli oilalarda voyaga etgan bolalarning o'z-o'zlarini baholashlari va nazorat qilishlari - 56% ni, o'z-o'zlarini boshqarishlari esa – 68%ni tashkil etdi, ko'rinib turibdiki, bunday ko'rsatkichlar bolaning aka-ukalari va opa singillarining ta'siri ostida shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi.

Kam farzandli oilalarda voyaga etgan bolalarning maktabdagi ta`lim-tarbiyaga moslashuvining bunday shaxsiy xislatlari – 38%ni ko'rsatdi, xolos. Fikrimizcha, bunday toifadagi bolalarda maktab hayoti haqidagi ma`lumotlarning tanqisligi, etarli darajada muloqot ko'lamining tor doirada kechishi, ma`lumotlarni olgan taqdirda ham ular o'z ota-onalarining yoki ommaviy axborot manbalari tufayli amalga oshishini ta`kidlash mumkin.

Bunday oilalarda ulg'aygan bolalarning o'z tengdoshlari bilan o'zaro hamkorlik darajalari ham – 26% ni tashkil etdi. Kuzatishlarimiz va suhbatlarimiz natijasi o'laroq, bunday toifadagi bolalarda jamoaga tezda ko'nikib ketish, o'z tengdoshlari bilan tezda umumiy „til topib“ ketish hollari birmuncha murakkab keshiga amin bo'ldik. Ba`zi hollarda bunday toifadagi bolalarda yotsirash, qo'rqinch, muloqot ko'lamining “rangsizligi”, har qanday muloqotga tezda kirisha olmaslik holatlari, ba`zida xudbinlik, o'rinsiz manmanlik hollari bolani o'zga bolalardan birmuncha yiroqlashishga olib kelish hollarini e`tirof etish mumkin.

Kam farzandli oilalarda voyaga etgan oilalardagi bolalarning tarbiyachi va pedagoglar bilan o'zaro hamkorlik darajalari – 30%ni tashkil etdi. Bunday holatni, bu singari oilalarda o'qituvchilar va tarbiyachi-pedagoglar haqidagi turli va rang-barang ma`lumotlarning etarli darajada erkin muloqotlar orqali olmasli, muloqot ko'lamining tor doirada kechishi sabablari bilan izohlash mumkin. Shuningdek, ba`zida bunday bolalarning o'qituvchilari va pedagoglari bilan har doim ham me`yorida o'rnata olmasliklarini ta`kidlash mumkin.

Bu singari oilalardagi bolalarning o'z-o'zini baholashlari va nazorat qilish hollari – 58% ni, o'z-o'zini boshqarish bo'yicha ko'rsatkichlari esa – 50%ni tashkil etdi. Ta`kidlash joizki, bunday bolalar xulqida ba`zida birmuncha manmanlik, o'ziga e`tibor berish, hurmat talab, o'ziga yuqori baho berish, ba`zida esa, aksincha, qo'rqinch, yolg'izlanish, xudbinlik xislatlarini namoyon bo'lishini ta`kidlash mumkin. Fikrimizcha, bunday xulosa yaratishga asosiy sababalar, bunday bolalarning etarli darajada o'z tengdoshlari bilan muloqotda

bo'la olmasliklari, ularning chegaralanganligi, ular bilan muntazam turli va rang-barang mavzularga oid samimiy, do'stona, teng-huquqli muloqotning har doim ham mavjud emasligi deb izohlash mumkin.

Tadqiqot natijalaridan ko'rinib turibdiki, maktab davriga kelib bolalar maktabdagi ta'lim-tarbiya jarayoniga aksariyat qismi tayyor bo'lar ekan. Turli sharoitlarda voyaga etib, maktabga kelgan bolalarning motivatsion-psixologik tayyorligi ham birmuncha farq qilishini kuzatdik. O'tkazdirilgan tekshirishlar ham bu narsani tasdiqladi. Odatda, tajribali pedagoglar va ota-onalar bolaning maktabdagi tartib intizomga epizodik, kayfiyati bilan hamohang ravishda moslashishini juda hohlashadi, biroq bolaga qo'yiladigan talablarni keskin ijro etish bola uchun ham ancha mushkul kechadi. Bu o'rinda, albatta, birinchi navbatda o'qituvchi so'ngra ota-onalarning bolaga o'rinli ta'sir ko'rsatishi muhimdir. Boladan keskin ravishda yangi ijtimoiy muhitga moslashishni talab qilish bolani toliqishga, ko'ngil sovishlariga olib kelishi, tabiiydir.

Tadqiqot doirasidagi tegishli adabiyotlar tahlili, kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, bolaning maktabga moslashishining uchta shartli etaplarini (faza) ajratish mumkin ekan. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin.

Birinchi etap – „fiziologik jo'shqin“ davri deb ham yuritiladi. Bu davrda bola hayotida muntazam ta'lim tizimining boshlanishi bilan kompleks yangi taassurotlarga nisbatan bola organizmining to'liqlanib jo'shqin reaksiya qaytarishi, butun bola tana tizimining zo'r berib faoliyat yuritishini kuzatish mumkin. Bunday jo'shqin faoliyat bolaning unga qo'yilgan talablarni va topshiriqlarni qisqa muddat orasida bajarishga to'la-to'kis ulgurish, o'z tengdoshlari orasida noqulay vaziyatga tushib qolishdan qo'rqish singari xususiyatlar bilan izohlanadi. Ta'kidlash joizki, bu - „orientirli“ davr maktab davrining ikki-uch haftalariga qadar davom etadi.

Ikkinchi etap – o'ziga xos omonat moslashuv davri deb yuritiladi. Bunda bola organizmi tashqaridagi qo'g'atuvchiga nisbatan yangicha, qandaydir o'zi uchun qulay, samarali vosita va yo'llarni axtara boshlaydi. Dastlabki

bosqichlarida organizm tejamkorligi kuzatilmaydi, bola barcha imkoniyatlaridan to'la-to'kis foydalanadi, ba'zida hatto odattagidan ko'proq kuch-quvvat sarflashga ham majbur bo'ladi. SHu bois, o'qituvchi bolaning maktab sharoitiga moslashuvida uning ichki kechinmalarini yaxshi anglamog'i zarur. Ayni shu paytda bola organizmida kechadigan birmuncha susayish, toliqish va zo'riqishlar ana shu xususiyatlar bilan izohlanadi.

Uchinchi etap – bu davrda bola organizmining maktab shart-sharoitlariga nisbatan barqaror moslashuvini kuzatish mumkin. Bunda organizm tashqi qo'zg'atuvchiga nisbatan birmuncha turg'un, bosiq, his-hayajonsiz javob qaytaradi. Endi bola o'z organizmi uchun zarur bo'lgan kuch-quvvatni tejab ishlatishga, uni ham kerakli paytlarda foydalanishga harakat qiladi.

Tadqiqot doirasidagi tegishli adabiyotlar tahlili va kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, 6 yoshli bolalarning kattalar va tengdoshlari bilan kechadigan muloqot va munosabatlarining mazmuni, mohiyati o'zga yoshdagi bolalarnikiga nisbatan birmuncha o'zgacha tusda kechar ekan. Ular muloqotining murakkablashib borishini kuzatish mumkin.

M.I.Lisina rahbarligida olib borilgan tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'lishicha, bolalarning kattalar bilan kechadigan turli aloqalari (chunonchi, ish va faoliyat yuzasidan biror narsani anglashi, bilish yuzasidan, shaxsiy o'ziga tegishli narsalar yuzasidan) 6 yoshlarda shaxsiy o'zlariga tegishli narsalar yuzasidan aloqa qilishlari birmuncha ustun turar ekan.(84)

6 yoshli bolalarning aloqa qilish va o'rnatish motivlarini o'rganishdan shu narsalar ma'lum bo'ldiki, bu yoshlarda shaxsiy mavzularga oid suhbatlar, uning shaxsiyati bilan bog'liq muloqotlarga bo'lgan ehtiyojlar 7 yoshlarnikiga nisbatan birmuncha ustun ekanligini ta'kidlash mumkin. Muloqot motivlarining rivojlanishi tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarning xususiyatlari haqida chuqur va boy ma'lumotlarga ega bo'lish, anglash imkoniyattini beradi. Kattalar bilan muloqot qilish jarayonida bolalar o'zlarini yaxshiroq anglay boshlaydilar, chunki ular o'ziga va o'z faoliyatiga tegishli baho olishlarini juda hohlashadi. Bu

yoshdagi bolalarning o'z tengdoshlari bilan kechadigan muloqoti, asosan, biror faoliyat jarayonida kechadi va o'za faoliyati davomida o'zligini namoyon qila boradi.

Kattalar bolalar faoliyatini to'g'ri uyushtirishi va samarali tashkil qilishi orqali bolaning o'zini bilishga bo'lgan ehtiyojlarini ortib borishini kuzatish mumkin. Ta'kidlash lozimki, maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsi rivojlanishining asosiy o'zgarishlari, bu yoshdagi bolalarning o'ziga xos shaxsiy sifatlari va fazilatlarini, layoqatlari, muvaffaqiyat va kamchiliklarini anglash kabi xislatlarning paydo bo'lishi bilan ham izohlanadi.

Tadqiqotlarimizning bu galdagi vazifalari ana shunday yoshdagi bolalarning orasidagi aniq farqli xususiyatlarini aniqlashga qaratdik. Zero, bunday muammoga oydinlik kiritish hozirgi kunda mamalakatimizda faoliyat yuritayotgan umumta'lim maktablarida tahsil olayotgan bolalarning o'ziga xos farqli tomonlarini ko'rsatishga, shuningdek shular asosida olingan ma'lumotlardan tegishli xulosalar chiqarishdan iborat.

6 yoshga to'lgan va 7 yoshdan yuqori bo'lgan bolalar orasidagi farqlar, asosan, Kern-Yirasek metodikasi bo'yicha olingan natijalarda keskin tafovut borligi aniqlandi. Birinchi topshiriq, ya'ni o'z xotirasiga asoslanib erkak kishining suratini chizish bo'yicha bajargan ishlarini quyidagicha izohlash mumkin. Ma'lumki, bu yoshdagi bolalarning asosiy faoliyat turi o'qish hisoblanadi, dars va turli mashg'ulotlar davomida boladan talab etiladigan psixik jarayon – bola xotirasining muntazam rivojlanib borishiri, undan turli topshiriq va vazifalarni tarkorlab turishini, yoddan aytib berishini, xotirasiga asoslanib bayon etishi bilan bog'liq masalalar bola xotirasining samarali va maqsadli ravishda rivojlanishiga puxta zamin tayyorlab boradi.

Maktabdagi topshiriq va vazifalarni bola bajarishi bilan birga bolaning atrof-olam haqidagi bilimlari, tushunchalari yanada ortib boradi, voqea va hodisalar orasidagi sabab-oqibat qonuniyatlarini anglaydi. Konkret narsa va predmetlarning mohiyati va mazmunini, ularning maqsadi va vazifalarini

tushunib borishi, bola tafakkurining fikrlash operatsiyalarini ham takomillashtiradi. Bu xislatlar o'z navbatida, topshiriq yuzasidan, jinslar orasidagi farqlarni ajrata bilish, erkaklarning o'ziga xos alomatlari, tashqi ko'rinishlari va jamiyatda ularni farqlab turuvchi sifatlarini ko'rsatishga, ularning ijtimoiy mavqelarini yoritishga bo'lgan intilishlarida ko'rdik.

Ikkinchi topshiriq bolalarning so'zlarni ko'chirib yozishdan iborat bo'ldi. Mazkur topshiriq tufayli biz, bolalarning qo'l-motor harakatlarining qanchalik rivojlanganligini aniqlashga harakat qildik. Darhaqiqat, 7 yoshdan yuqori bolalarning bu boradagi natijalari sezilarli darajada ikkinchi tajriba o'tkazdirilgan guruhlardagi bolalarga nisbatan yaxshi natijalarni ko'rsatdi. Buning asosiy sabablari, bu yoshdagi bolalarning muntazam ta'lim tizimida, mashg'ulotlarda o'ziga xos bo'lgan jismoniy harakatlar bilan bog'liq muayayn mashqlarni bajarishlari, turli shakldagi mashqlarni ijro etishlari bolalarni yanada qo'l-bo'g'inlarining mutanosib harakatlarini ta'minlashi samarasidir.

Bu borada yana muhim jihatlaridan biri, bolalarning anatomik-fiziologik jihatdan etilishlari, organizmdagi o'zgarishlar bolalarning komil inson bo'lib etilishlarida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi topshiriqda bolalarning makonda muayayn tartib va miqdorda joylashtirilgan nuqtalarni ko'chirib berishdan iborat edi. Bu turkumdagi topshiriqlarda ham biz ikki tajriba guruhlari orasidagi tafovutni kuzatdik. 7 yoshga to'lib, o'sha yoshdan oshgan bolalarning ko'rsatkichlari 6 yoshga to'lgan bolalarga nisbatan ancha farq qilishlarini, bu yoshdagi bolalarning makonda joylashtirilgan narsa va predmetlar orasida masofani, ularning o'zaro joylashuvini, shuningdek xotira jarayonlari bilan bog'liq xislatlarning etarli darajada rivojlanganligidan dalolat beradi.

Barcha metodikalar bo'yicha olingan natijalarning umumiy yig'indisida ham yuklamalarning ahamiyatli ekanligi statistik isbotini topdi. Ta'kidlash joizki, boshqa metodikalar bo'yicha o'tkazdirilgan tajribalarda, biz keskin tafovutlarni kuzatmadik. Buning boisi, bolalarning maktabga kelishlari bilan ularning

muntazam ta`lim bilan shug`ullanishlari, ulardan o`qituvchi va tarbiyachilarning talab va topshiriqlarni bajarishlari, ularda ma`lum darajada aqliy, axloqiy va ijtimoiy dunyoqarashlarining shakllanib borayotganligi samarasidir.

BOB BO`YICHA XULOSALAR:

Ma`lumki, har bir inson kamollikka erishishda o`zi yashab turgan ijtimoiy muhitda ma`lum bir shaxslar bilan munosabatga kirishadi, o`zaro ta`sir ko`rsatadi, o`ziga mansub oila, jamoa va jamiyatda ulg`ayadi, shakllanadi. Inson nafaqat mazkur guruh va sinflarning passiv a`zosi balki faol, aktiv sub`ekti tariqasida ularga ta`sir ko`rsatadi, o`zgartiradi shu bilan birga o`zi ham o`zgaradi, yangi fazilat va qirralirini yaratib boradi.

Shu bois, shaxsning mohiyati o`z tabiati jihatidan ijtimoiy xarakterga egadir. Shaxsdagi barcha psixik xususiyatlar, ijodiy faolligining taraqqiyot manbalari uning tevarak-atrofidagi ijtimoiy muhitda, jamiyatdadir. Inson shaxsi sababiy bog`liqlikda bo`lib, uning ijtimoiy turmush tarzi bilan belgilanadi. Shu ma`noda shaxsning taraqqiyoti odamlar bilan munosabatda yuzaga keladigan ijtimoiy tajribani egallash jarayonidan iboratdir. Buning natijasida insonning psixik xususiyatlari, axloqiy fazilatlari, xarakteri, irodaviy sifatlari, qiziqishlari, e`tiqod va dunyoqarashi tarkib topadi.

Mazkur bobda olib borilgan tadqiqotlarimizning tub mohiyatini ayni shu ijtimoiy omillarning yosh avlodning komil inson bo`lib etishidagi ta`sir kuchlari, uning muhim ko`rsatkichlari va ontogenezda bu davrlarning o`ziga xos umumiy va farqli tomonlarini aniqlash tashkil etdi. Bular:

1. Turli hayotiy va pedagogik tajribaga ega bo`lgan 50-nafar nufuzli hakamlar saralab olindi;
2. Nufuzli hakamlarning tajriba va kuzatishlari asosida shaxsning ijtimoiy-psixologik tayyorligiga ta`sir etuvchi omillar tizimi yaratildi;

3. Bolalarning maktabga ijtimoiy-psixologik tayyorligiga ta'sir etuvchi omillar pillapoyasi (ierarxiya) quyidagicha tasniflandi:

a) Ijtimoiy muhit ta'siri – 3,04

b) Maktabgacha muassasalar – 4,04

v) Bolalar bog'chasi – 3,96

g) Katta oilalar (serfarzand) – 3,4

d) Kam farzandli oilalar – 2,52

4. Bolalarning maktabga ijtimoiy-psixologik tayyorligiga ta'sir etuvchi ustuvor omillarning qiymatlari aniqlandi, ular faktor analiz qilindi;

5. To'liq 6 yoshli va 7 yoshdan o'tgan bolalar orasidagi tafovutlar turli malakali psixodiagnostik testlar yordamida aniqlandi va ularda namoyon bo'ladigan psixologik xususiyatlarning o'ziga xosligi tahlil qilindi;

Tadqiqot va tahlillar samarasi o'laroq bolani o'rab turgan ijtimoiy muhit, ma'lum bir maqsadga qaratilgan ta'lim-tarbiya, bolaga tabiiy ravishda berilgan layoqatlari uning komil inson bo'lib etishishida puxta zamin bo'lishi mumkin. Biroq, bola shu jarayonning faol ishtirokchi sifatida o'zini namoyon qila olsagina, u to'laqonli shaxsga aylanishi, hayotda o'z o'rnini munosib topa olishi mumkin.

III BOB. PSIXODIAGNOSTIK METODIKALAR YORDAMIDA OLINGAN EKSPERIMENT NATIJALARINING TAHLILLARI

1§ Bolalarning maktab ta`limiga etukligining ijtimoiy va psixologik xususiyatlari orasidagi o'zaro munosabatlar

Bolalarning maktab ta`limiga tayyorligi bola organizmining anatomo-fiziologik, motivatsion, ijtimoiy-psixologik va psixik rivojlanishlari singari kompleks xususiyatlarining tayyorligi bilan belgilanadi.

Bolaning asosiy, muhim shaxsiy fazilatlari uning bolalik chog'idan shakllanishini ta'kidlash mumkin va bu xususiyatlar asta-sekin shaxsning barqaror ijtimoiy tip sifatida uning xarakter, shaxs individualligiga aylanib boradi. Mazkur fundamental shaxs xususiyatlari unda ustuvor motiv va ehtiyojlari, yo'nalish va ustanovkalaridir. Mazkur sifatlar uni o'zgalardan ajratib turuvchi, juda yoshlik davridan boshlanadigan, bolada hali nutqning paydo bo'lmasidan shakllangan fazilatlardir. Bu sifatarning bola hayoti davomida barqaror namoyon bo'lishi unda bola miyasining hamda qo'zg'atuvchilarni differentsiatsiya qilish qobiliyatining etarli darajada rivojlanmaganligidir.

Muhim shaxsiy sifatlarining o'zgalardan farqlab turuvchi jihati, ayniqsa boshlang'ich davrda bola organizmining genotipik va biologik xususiyatlar bilan shartlanganidadir. Bunday sifatlar sirasiga ekstraversiya va introversiya, ishonch va xavotirlanish, emotsionallik va muloqot, nevroz va shu singarilardir. Ma'lumki, bunday fazilatlar genotip va ijtimoiy muhit, ong va ongsizlik, operant va shartli reflekslarning odat tusiga kirib borishida, yoki o'rganishida, taqlid va taassub qilishi natijasida shakllanadi va barqarorlashadi.

Bolaning o'z-o'ziga baho berishi, unga ma'lum bir talablarni qo'yilayotganligini anglashi, taxminan 3-4 yoshlarda, bola o'zini o'zgalalar bilan taqqoslab ko'rishi oqibatida asta-sekin tushuna boshlaydi. Maktab davriga kelib, bola xulqida yangi bir o'z-o'zini anglash darajasi kuzatiladi, bu- bolada motivatsion „ichki pozitsiya“ning paydo bo'lish xususiyatidir. Bunday xususiyat

bolaning o'ziga, o'zgalarga va atrof-olamga bo'lgan munosabatlarida ko'rina boshlaydi. Bu borada L.I.Bojovich: „Bunday yangi xususiyatning paydo bo'lishi, bolaning butun ontogenetik taraqqiyotida keskin o'zgarish davrining boshlanishi hisoblanadi“, - deb ta'kidlaydi. Bolaning ichki pozitsiyasi unda keyinchalik irodaviy sifatlar, mustaqillik, qat'iylik, sabot-qanoat, ma'lum maqsadga intilish kabi fazilatlarining shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi asos hisoblanadi. (23)

Bu borada bolaning o'z-o'ziga bo'lgan munosabati muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, bola o'zini qanday tasavvur qilishi ko'p jihatdan uning faolligini, munosabat ko'lamini, erkin va mustaqil harakatlarini ta'minlaydi. Bolaning o'zi haqidagi tasavvuri „Men obraz“i va xususiy o'z-o'zini baholash tizimi zahirida paydo bo'ladi. „Men obrazi“ bolada qandaydir umumlashgan holda namoyon bo'lib, bu holat bolaning yoshi ulg'ayishi bilan o'zgarib boradi, va muhimi u yanada chuqurlashib, tarmoqlanib boradi. Boladagi xususiy o'z-o'zini baholash tizimi undagi „Men obrazi“ bilan uyg'unlashib ketadi, ba'zida bu xususiyatlar orasida o'zaro kelishmovchiliklar, nizolar paydo bo'lishini kuzatish mumkin. Bu jarayon, asosan, bolaning yutuq va muvaffaqiyatsizligida, u yoki bu hayot faoliyat turlarida kuzatish mumkin. Boladagi o'z-o'zini baholash xususiyati o'zini anglashi, o'zini boshqa tengdoshlari bilan taqqoslashi, bolani qushab turgan kishilar, kitob va kino qahramonlari, o'zini turli faoliyatda muvaffaqiyatli namoyon qila olishi, shuningdek bolaning hurmat-e'tiborida bo'lgan kishilarning bergan baholari zahirida paydo bo'lib boradi. Atrof-muhitning, vaziyatlarning o'zgarishi boladagi o'z-o'zini baholash mezonlarini ham o'zgartirishga sabab bo'ladi. Bolaning yoshi ulg'ayib borishi bilan uning tashqi omillarga bo'lgan munosabati o'zgarib boradi, demak bola xulqida o'z faoliyatini, hayotini tahlil qilishga zamin paydo bo'layotganligidan dalolat beradi. SHu ma'noda, bolaning xulqida, harakatlarida ham o'zgarishlarni kuzatamiz.

Bolaning shaxs sifatida shakllanishi nuqtai-nazaridan maktabgacha bolaning davrini shartli ravishda uch qismga ajratish maqsadga muvofiqdir:

birinchi davr – maktabgacha davrning 3-4 yoshlariga to'g'ri kelib, bu davrda bolaning emotsional o'zini boshqarish xususiyatlarini mustahkamlashi bilan izohlanadi;

ikkinchi davr - ontogenezning 4-5 yoshlarini o'z ichiga qamrab olib, bunda, asosan, bola xulqida axloqiy o'zini boshqarish xususiyatlarining tarkib topish davri hisoblanadi;

uchinchi davr – bu yosh davrining 6 yoshlariga to'g'ri kelib, bunda bolaning shaxsiy ishbilarmon, uddaburonlik sifatlarining shakllanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotlarimizning bu davradagi maqsadi bolalarning maktabga motivatsion, ijtimoiy-psixologik tayyorligi bilan bir qatorda ularni kompleks ilmiy – tadqiqot metodikalaridan foydalangan holda, turli xususiyatlari orasidagi o'zaro bog'liqliklarni aniqlashga qaratilgan. Bu jarayonda biz quyidagi metodikalardan foydalandik:

„Men qandayman“ metodikasi – bu metodika maktabgacha yoshdagi bolalarning o'z-o'zini baholashini o'rganishga qaratilgan. Bunda bola o'zida namoyon bo'ladigan 10-ta ijobiy xislatlarini qanday idrok etishi va baholashlarini eksperimentator maxsus bayonnomada qayd etib boradi va ballarga aylantiradi.(99)

Ball natijalari: „ha“ javob uchun – 1 balldan, „yo'q“ javoblari uchun – 0 balldan qayd qilib boriladi. „Bilmayman“ yoki „ba`zida“ javoblari uchun – 0,5 balldan belgilanadi. Bolaning o'z-o'zini baholash ballari barcha sifatlardan to'plangan ballarning yig'indisidan iborat bo'ladi.

Bola shaxsining baholanadigan sifatlari:

- 1) Yaxshi bola
- 2) Mehribon
- 3) Aqlli
- 4) Saranjom-sarishta, ozodaligi
- 5) Itoatgo'yligi

- 6) Diqqat, e'tibori
- 7) Xushmoamala
- 8) Chaqqon, epchil
- 9) Mehnatsevar
- 10) Vijdonli

Rivojlanganlik darajalarining xulosalari quyidagicha:

- 10 ball – juda yuqori
- 8-9 ball - yuqori
- 4-7 ball – o'rtacha
- 2-3 ball - past
- 0-1 ball – juda past

„Bolaning atrofdagi kishilar bilan muloqotini aniqlash“ (yoki *Kommunikativlik*) metodikasi – mazkur metodika bolalarning kommunikativlik shaxsiy sifatleri nufuzli hakamlar tomonidan baholashni taqozo etadi. Bolaning shaxslararo munosabatlari, shuningdek bu sifatlar bilan funksional bog'liq kommunikativlik xususiyatlari bolani yaqindan bilgan kishilar tomonidan xolisona baholanadi.(99)

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bunday ekspertlar sifatida biz bolani yaqindan biladigan nufuzli hakamlarning yordamiga tayanganmiz. Ulardan bolaning quyidagi fazilatlarini aniqlab berish so'raladi:

- 1) Mehribonlik
- 2) Odamlarga e'tiborlik
- 3) To'g'ri so'z, vijdonli
- 4) Xushmuomalalik
- 5) Dilkashlik
- 6) Saxiylik
- 7) Mehr-shafqatlilik
- 8) Rostgo'ylik

9) Xushchaqchaqlik

10) Mas`uliyatlik

Ekspertlar so'rovnomadagi bandlarga: „ha“ – 1 ball,

„yo'q“ – 0 ball,

„bilmayman“ yoki „ba`zida“ – 0,5 ball

bilan baholaydilar. Olingan natijalar maxsus blanklarda qayd etiladi.

Rivojlanganlik darajalarining xulosalari quyidagicha:

10 ball – eng yuqori,

8-9 ball – yuqori,

4-7 ball – o'rta,

2-3 ball – past,

0-1 ball – juda past.

Bu yoshlardagi bolalar muloqotida yangi motivlar yuzaga keladi. Bunday muloqot turi - shaxsiy va ishbilarmonlik, uddaburonlik motivlaridir. Shaxsiy muloqot motivlari – bu bolani xavotirga solayotgan, ichki muammolari bilan bog'liq, ishbilarmonlik motivlari esa u yoki bu ishlarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan motivlardir. Bu motivlarga asta-sekinlik bilan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash bilan bog'liq bo'lgan o'qish motivlari qo'yiladi. Bu motivlar ilk bolalik davridan boshlanib, yuzaga keladigan bolalarning tabiiy qiziquvchanligi zahirida paydo bo'ladi, shuningdek bu yoshda faoliyati bilan bog'liq o'zini namoyon qilish motivlari ham namoyon bo'ladi. Bu motiv, asosan, bolalarning syujetli-rolli o'yinlarda asosiy rolni egallashga, o'zgalar ustidan rahbarlik qilishga, musobaqaga kirishishga qo'rqqanligida, har qanday holatda ham g'olib chiqishga bo'lgan intilishda namoyon bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun kattalar beradigan baholari juda muhimdir. Bolalar birinchi navbatda ma'naviy – axloqiy me'yor va qoidalarni, o'z majburiyatlariga munosabat, kun tartibiga rioya qilish, hayvonlar va narsalar bilan muomala qilish me'yorini egallab boradilar. Bunday xislatlarni egallab borish bu davrda

birmuncha murakkab kechishini e`tirof etish mumkin, bu narsalarni rolly-syujetli o`yinlar yordamida shakllantirish yaxshi samara beradi. Bog`cha yoshining so`nggi davrlarida aniq bir axloqiy qarashlar vujudga keladi, shuningdek o`zga kishilar bilan bog`liq bo`lga shaxsiy sifatlar ham shakllanadi. Bunday xususiyatlar o`zgalarga nisbatan hurmat-ehtiromda bo`lish, mehribonlik ko`rsatish va shu singarilardir. Katta yoshdagi bolalar aksariyat hollarda o`z hatti-harakat sabablarini tushuntirib berishlarini kuzatish mumkin.

Bu yoshdagi bolalarning maktabga motivatsion-psixologik tayyorlik jarayonida ularning kattalar bilan muloqoti muhim hisoblansada, biroq yagona hisoblanmaydi. Bu o`rinda bolalarning o`z tengdoshlari bilan ham muloqoti, ular bilan o`zaro hamkorligi, ta`siri bolalarning kamol topishida asosiy o`rinlardan birini egallaydi. Bunday xususiyat bolaning maktabdagi ta`lim jarayoni uchun ham ikki ma`no kasb etadi. Birinchidan – bolaning o`z tengdoshlari bilan muloqoti etarli darajada rivojlangan taqdirdagina bola jamoaviy o`quv faoliyatida o`zini mos, o`rinli sa`y-harakatlar qilishini ta`minlasa, ikkinchidan esa – taxminlarga ko`ra, bolaning jamoaviy ta`lim jarayonida o`z tengdoshlari bilan o`zaro munosabatlari, hamkorligi, bir-biriga o`zaro ta`sir ko`rsatishlari butun jamoaning o`quv vazifalarini hamkorlikda echimini topishda bolaga qulay imkoniyatlar yaratar ekan.

Bu toifadagi bolalar farqli xususiyatlarining muloqotlari ham mavhum xarakterga ega bo`lgan masala va misollarni echishlarida kuzatish mumkin ekan. Bunday hodisani kuzatish maqsadida, biz bolalarga quyidagi uchtadan bevosita va bilvosita xarakterga ega bo`lgan masalani echishlarini so`radik. Ular quyidagilar:

Bevosita xarakterga ega bo`lgan masalalar:

1. Daraxtning shoxida ikkita qush qo`nib turibdi. Ularning yoniga yana uchta qush kelib qo`ndi. Daraxtda nechta qush bor?
2. Maktab atrofida oltita daraxt o`sib turibdi. Ulardan uchtasini boshqa joyga o`tqazdirishdi. Maktab atrofida nechta daraxt qoldi?

3. Anavarda to'rt dona konfet bor edi. Unga yana uch dona konfet sovg'a qilishdi. Anvarda nechta konfet bo'ldi?

Bilvosita xarakterga ega bo'lgan masalalar:

1. Daraxt shoxida qushlar qo'nib turishibdi. Ular yoniga yana ikkita qush kelib qo'ndi, endi ularning soni beshtaga etdi. Aytingchi, bu qushlar kelib qo'nmasdan avval daraxt shoxida nechta qush bor edi?

2. Maktab hovlisida daraxtlar ko'karib turibdi. Ulardan uchtasini boshqa joyga ko'chirishganda u erda to'rtta daraxt qoldi. Aytingchi, bu daraxtlarni ko'chirishmasdan avval maktab hovlisida nechta daraxt bor edi?

3. Anvarning konfetlari bor edi. Unga yana uchta konfet sovg'a qilishganda, unda olti dona konfet bo'ldi. Aytingchi, Anvarning avval necha dona konfeti bor edi?

Ta'kidlash joizki, har ikkala: bevosita va bilvosita xarakterga ega bo'lgan masalalarni bir vaqtning o'zida echimini topadigan bolalar masalaning umumiy echimini tezda topa olishlari va yuqori darajadagi muloqotchandligi, o'z tengdoshlari bilan o'zaro ta'sir ko'rsatishlari bilan ajralib turishdi.

Bunday xarakterdagi masalalarning umumiy echimini topa olmagan bolalar esa arifmetik qo'shish, ayirish singari ko'nikma va malakalarining etarli darajada rivojlanmaganligidan, tengdoshlari bilan o'zaro muloqot va ta'sir ko'rsatishlari birmuncha sust ekanligidan dalolat beradi.

Bevosita xarakterga ega bo'lgan masalalarni tezda echimini topa oladigan, biroq bilvosita masalalarda birmuncha qiynaladigan, bunday tipdagi masala va misollarni ham bevosita usullar bilan echadigan bolalarning o'z tengdoshlari bilan muloqotlari, o'zaro ta'sir kuchlari ham birmuncha past darajada ekanligi ma'lum bo'ldi. Bunday tipdagi bolalarning asosiy qiyinchiliklari, ularning o'z qarashlarini o'zgartira olmasliklari, juda qiyinchilik bilan ulardan voz kechishlari, o'zlarini boshqalar o'rnida ko'ra olmasliklari bilan ajralib turishlarini ta'kidlash mumkin.

III 2§ Bolalarning shaxsiy, motivatsion -psixologik va aqliy xususiyatlari orasidagi o'zaro munosabatlar

Bolaning maktabdagi ta'lim-tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli o'zlashtirishi ko'p jihatdan ularning maktabga tayyorlik darajalariga bog'liqdir.

Bola dastlab maktabga anatomik-fiziologik tomondan, jismoniy barkamolligi bilan etuk bo'lishi muvaffaqiyat garovidir. 6 yoshli bolalarning jismoniy jihatdan rivojlanishlari o'ziga xos tarzda kechadi. Bu yoshda bola organizmi jadal sur'atlar bilan rivojlanadi. Uning vazni oyiga 150-200 grammgacha ortib boradi, bo'ylari 0,5 sm. o'sishda davom etadi. 6 yoshli bolalarning bo'ylari, taxminan 110 – 111 sm., vazni esa 20-21 kg. ni tashkil etsa, 7 yoshlarda bolaning bo'yi 120-121 sm., og'irligi esa taxminan 21-22 kg. ni tashkil etishi mumkin.

Bolaning maktabga kelish arafasida u biologik jihatdan nisbatan uyg'un o'sadi, uning bo'yi va og'irligi, o'pkasining hajmi mutanosib rivojlanadi. Biroq, bolaning ko'krak qafasi suyaklari, tos qismi, qo'l suyaklari, umurtqa pog'onasida hali tog'aysimon to'qimalar uchraydi, bu esa uning suyak tizimi etarli darajada takomillashmaganligidan dalolat beradi. YUrak muskullari tez o'sadi, qon tomirlarining hajmi kengayadi, miyaning vazni boshlang'ich sinflarda 1250-1400 grammni tashkil etadi. Miya po'stining analitik-sintetik faoliyati takomillashadi. Qo'zg'alish bilan tormozlanish o'rtasidagi munosabat o'zgaradi, bu borada qo'zg'alish nisbatan ustunlikka ega bo'ladi. SHu bois, bolaning qaddi-qomatini to'g'ri o'sishi, toliqishini oldini olish, uning o'qish va dam olish kundalik qoidalariga rioya qilishi maqsadga muvofiqdir. YOzuv va boshqa mashqlarni haddan ziyod mashg'ulotlarda ko'paytirish qo'l – barmoq suyaklarining noto'g'ri o'sishiga olib keladi. Bog'cha davrida mayda mushaklar (barmoq muskullari) sekin o'sadi, bu yoshdagi bolalarning aniq mashqlarni bajarishlari mushkul kechadi.

6 yoshli bolalar turli jismoniy mashg'ulotlarni tez va chaqqon bajara oladilar. Ular sakrash, yugurish, suzish singari mashg'ulotlarni qiyinchiliksiz

bajaradilar. Musiqa mashg'ulotlarida bu yoshdagi bolalar turli ritmik va plastik harakatlarni aniq, tez, engil va chaqqon bajara oladilar. Kattalar bu yoshdagi bolalar bilan faoliyat yuritishlarida ularning organizmlari hali o'sishda davom etayotganligini nazarda tutishlari lozim.

Bolaning aqliy jihatdan tayyorligi ham muhim o'rin egallaydi. Aksariyat hollarda bolaning aqliy tayyorgarligi deyilganda uning ma'lum bir dunyoqarashlari, atrofi-olam, insonlar va ularning faoliyati haqidagi bilimlari tushuniladi. Ushbu bilimlar maktab beradigan ta'limga asos bo'lishi mumkin, bolaning so'z boyligi, ma'lum hatti-harakatlarni bajara olish qobiliyati bolaning maktabga aqliy tayyorgarligining asosiy ko'rsatkichi bo'la olmaydi. Maktab dasturi boladan taqqoslay olish, tahlil eta olish, umumlashtirish, ma'lum bir xulosalar chiqara olish, shuningdek etarli darajada rivojlangan bilish jarayonlarini talab etadi. Masalan, 6-7 yoshli bola tabiat haqida ayrim hodisalarnigina emas, balki inson organizmining tabiat bilan bog'liqligini, ularning o'zaro ta'sirini ham tushunishi va o'zlashtirishi mumkin. 6-7 yoshli bolalarning aqliy rivojlanganligining samarasi sifatida, yuqori darajada rivojlangan ko'rgazmali-obrazli tafakkur bilan bola atrof-olamdagi predmetlarning asosiy xususiyatlarini va narsalar orasidagi sabab-oqibat qonuniyatlarini bilish qobiliyatidir. SHuni ta'kidlash lozimki, ko'rgazmali-harakatli va ko'rgazmali-obrazli tafakkur nafaqat 6-7 yoshli bolalar, balki kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning aqliy rivojlanishida ham asosiy funktsiyani bajaradi. Bu borada bolada ma'lum bir ko'nikmalarning tarkib topganligi ham juda muhimdir.

Bolaning o'zini katta bo'lganini his etishi, u endi bog'cha bolasi emas, balki ma'lum bir majburiyatlarni bajaruvchi maktab o'quvchisi ekanligini anglashi, uning jiddiy faoliyat bilan shug'ullanayotganligini bilishi nihoyatda muhimdir. Bolaning maktabga borishini istamasligi ham salbiy holat hisoblanadi. Maktabga shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorlik bolalarda o'z tengdoshlari, o'qituvchi va tarbiyachilar bilan munosabatga kirisha olishi, ularni

bolalar jamoasiga kirisha olishiga, ba`zi holatlarda ularga yon bosish, o`rni kelganda ularga o`z bosimini o`tkazdirish, ular bilan hamkorlikda faoliyat yuritish xususiyatlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. 6-7 yoshli bolalar o`qishidagi asosiy qiyinchilik, ko`pincha bu yoshdagi bolalar uzoq muddat davomida darsda o`tirishlari mushkul bo`ladi, natijada ularda psixik jarayonlarni bir joyga to`play olishga salbiy ta`sir ko`rsatadi. Ularda toliqish, e`tiborsizlik, diqqatlarining chalg`ishi kabi jarayonlarning paydo bo`lishiga sabab bo`ladi.

Bolalik davrida namoyon bo`ladigan animizm esa, ularning „Men“ tushunchasi o`z xususiyatiga ko`ra barcha jonsiz predmetlarga ham xos degan noto`g`ri tushunchaning mavjudligidan dalolat beradi. Ta`kidlash joizki, bola jonli organizmning faqat biologik tirik organizmlarga mansubligini yoshi ulg`ayib borishi bilan, bu xususiyat 11-12 yoshlargacha davom etib, anglab etadi.

Bolalar tafakkurida namoyon bo`ladigan artifitsializm hodisasi, bolani o`rab turgan olamdagi narsa va predmetlarning barchasi o`z mohiyatiga ko`ra inson irodasi mahsulidir degan tushunchaning ko`rinishidir. Shu bois, bolalar bu yoshda mavjud narsalarning vazifasiga asoslanib xulosa chiqarishga harakat qiladilar.

Ma`lumki, o`quv harakatlari bolalarning imkoniyatlari va harakatlariga asoslangan yuqori darajalari nazorat turini muntazam namoyon bo`lishini taqozo etadi. Bolalarda e`tibor bilan amaliy mashqlarni bajarishlari ularning ijtimoiy motivlarining o`ziga xos ko`rinishidir. Zero, namunali va e`tiborga loyiq har qanday mehnatning samarasi bolalarga o`zgalar tomonidan beriladigan maqtov va daldaga bo`lgan ichki intilishidir.

Bu yoshdagi bolalarning intellektual nuqtai-nazardan muhim sifat o`zgarishi undagi ichki aqliy harakat va operatsiyalarning ajralib turishi va ma`lum bir tus olish jarayonidir. Bunday xususiyatlar bolaning nafaqat bilish jarayoni, balki shaxsiy vazifalarni hal qilishida ham namoyon bo`la boshlaydi. Shu ma`noda,

bolalarda dastlab bilish jarayoni bilan bog'liq ichki, shaxsiy sifatlar birmuncha keyinroq esa emotsional-motivatsion jarayon paydo bo'lishini kuzatish mumkin. Bunda bolada ramzlardan asta-sekin obrazlarga o'tish jarayoni kuzatiladi. Obrazlar sifatida turli obrazlarni fikran yasash, qurish hisoblansa, ramzlar sifatida esa turli alomatlar tizimi (ramziy funktsiyalar va boshqalar) ular bilan opreatsiya va harakatlarni amalga oshirish, matematik, lingvistik, mantiqiy va boshqalar hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning bu sohadagi muhim sifatlaridan biri, bu bolalar hayotida ijodkorlik jarayonining namoyon bo'lishidir. Bolalardagi ijodiy qobiliyatlar konstruktorlik o'yinlari, texnik va badiiy ijodkorlikda yaqqol ko'zga ko'rina boshlaydi. Bunday faoliyat jarayonida bola o'zida namoyon bo'layotgan qobiliyatning dastlabki layoqatlarini ko'rsata boshlaydi. Tarbiyachi va pedagoglar, ota-ona va kattalar tomonidan ayni paytda bolaning u yoki bu qobiliyatga bo'lgan layoqatini o'z vaqtida aniqlash, uni to'g'ri yo'naltirish va muntazam mashg'ulotlar uyushtirib borilishi juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolaning bilish jarayonida tashqi va ichki harakatlarning sintez davri boshlanadi. Idrok etish davomida bunday sintez pertseptiv harakatlar tariqasida, bola diqqatida esa – bolaning ichki va tashqi harakat rejalarini boshqarish va nazorat qilishda, xotirasida esa – materiallarni yodda saqlab qolish va amalga oshirishda, ularni ichki va tashqi xususiyatlarini konstruktsiya qilishida ko'rinadi.

Bu ayniqsa, tafakkurda ko'rgazmali-amaliy, ko'rgazmali-obrazli, so'z-mantiqiy turdagi amaliy vazifalarni bajarishda yaqqol ko'rina boshlaydi. Shular asosida insonning to'laqonli aqliy sifatleri shakllanib boradi.

Maktabgacha yosh davrda xayol, tafakkur va nutq jarayonlarining mushtarak, uyg'unlashib ketishi kuzatiladi. Bolalar xulqidagi bu singari sintez obrazlarni nutq yordamida boshqarishda ko'rinadi.

Ta'kidlash joizki, maktabgacha yoshdagi va umumta'lim maktablarining endigina birinchi sinflarda tahsil olayotgan bolalarning o'z-o'ziga beradigan baholari ham turlicha, hattoki qarama-qarshi ko'rinishda namoyon bo'lishini

kuzatdik. Bolalar bilan maxsus tarzda o'tkazdirilgan turli shakldagi suhbatlarimiz, bahs-munozaralarimiz bunday xulosa yaratishga asos bo'ldi. Chunonchi, biz, dastlab, maktabgacha yoshdagi bolalarga „Bir bolachaning bir savat olmani ko'tara olmayotganligi“ haqidagi suratni izohlab berishlarini so'radik, aksariyat bolalar savat og'ir ekanligini sabab qilib ko'rsatishgan bo'lsa, ayni shu suratni kichik maktab yoshidagi bolalarga namoyon qilishganimizda, ular bolaning kuch-quvvati etmayotganligini aytishdi. Yana bir misol, biz bolalarga yana bitta „Qiz bolachaning o'rindiqdanda hatlab o'tayotganda tasodifan yiqilib tushganligi“ haqidagi suratni izohlab berishlarini so'radik. Bu holatda ham, biz ayni shunday talqinlarni kuzatdik. Maktabgacha yoshdagi bolalar bu suratni o'rindiqli juda baland ekanligini ta'kidlashsa, kichik maktab yoshidagi bolalar esa qiz bolaning kichik ekanligini, u hali sakrashni yaxshi bilmasligini aytishdi. Tahlillardan ko'rinib turibdiki, maktabgacha yoshdagi bolalar muvaffaqiyatsizlikning asosiy sababalarini o'zga predmet va narsalarda ko'rishsa, kichik maktab yoshidagi bolalar esa bunday muvaffaqiyatsizliklarni o'zlaridagi kamchilik sifatida e'tirof etishmoqda. Bu o'rinda eng muhimi, bolalarning vaziyatni to'g'ri baholashga o'rgatish, o'zlarini nafaqat o'z ko'zlari bilan „ko'rishlari“, balki boshqalar „ko'zi“ bilan ko'rishga o'rgatish, ularda mos, adekvat o'z-o'zini baholash xususiyatlarini shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'satadi. Bu o'rinda tarbiyachi va pedagoglar, ota-onalar, kattalar alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotlarimizning bu bosqichdagi maqsadlari bolalarning shaxsiy, motivatsion-psixologik va aqliy taraqqiyotlarining o'zaro munosabatlarini tadqiq etishga qaratilgan bo'lib, biz bu o'rinda malakali psixodiagnostik testlardan foydalandik.

Kuzatish va tahlillarning ma'lum bo'lishicha, bola maktabga kelish arafasida uning so'z boyligi o'z fikrini bayon eta oladigan darajada shakllangan bo'ladi. Agar bu yoshda normal rivojlanayotgan bola o'z nutqida 500-600 so'zni ishlatsa, olti yoshli bola 3000-7000 so'zni ishlata oladi. Boshlang'ich sinflarda

shug'ullanayotgan bolalarning nutqi asosan ot, fe'l, sifat, son va bog'lovchilardan iborat bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar o'z nutqlarida qaysi so'zlarni ishlatgani afzalu, qaysi so'zlarni ishlatish mumkin emasligini farqlay oladilar. 6-7 yoshli bola o'z jumllarini murakkab grammatik shaklda tuzishga qodir. Bola butun bolalik davrida nutqni jadal ravishda egallab borib, nutqni o'zlashtirib borishi ma'lum bir faoliyat turiga aylanib boradi. 7-9 yoshlarda esa bolalarning o'ziga xos yana bir xususiyati bola nutqida o'z fikrini bayon etib qolmay, balki o'z suhbatdoshining diqqatini o'ziga jalb qilish uchun ham so'z yuritadilar.

Bolaning individual rivojlanish jarayonida o'z kuchlari, harakatlari va tirishqoqligi zahirida uning qobiliyati haqidagi tushunchalari asta-sekin shakllanib boradi. Biroq, bola hayoti davomida erishayotgan yutuq va kamchiliklariga sababchi bo'lgan bunday omillarni bolaning o'zi anglab etmaydi. Bunday xususiyatlar bolaning 4-5 yoshlarida ko'rinadi. Taxminan 6 yoshlardan boshlab bola bunday muvaffaqiyat va kamchiliklarning sababchisi „qobiliyat“ ekanligini asta-sekin seza boshlaydi.

Bolalar xususiyatidagi yana bir muhim narsa, unda qaysi davrdan boshlab bola shaxsida mulohazali va ongli ravishda muvaffaqiyatlarga erishish motivatsiyasining paydo bo'lishi va boshqarilishidir. Shubhasiz, bunday xususiyat bolalar xulqida mos, adekvat talabgorlik darajasining paydo bo'lishidan, o'z sa'y-harakatlarini ongli tanlay bilish davridan boshlanadi.

Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'lishicha, bolaning 4 yoshlarida adekvat talabgorlik darajasi namoyon bo'lmaydi. Shu bois, bu yoshdagi bolalar aksariyat hollarda o'z oldilariga murakkab, bajarib bo'lmaydigan maqsad va vazifalarni qo'yishadi. 5-6 yoshlarda esa birmuncha real topshiriqlarni qo'yish holatini kuzatsakda, biroq bu davrda ham yuqori talabgorlik darajasining namoyon bo'lishini kuzatamiz. Bunday holat bolalarning o'z yutuq va muvaffaqiyatlari haqidagi tushunchalarining barqaror o'rnashganligidan dalolat beradi. Agarda mana shu ma'lumot bilan bir qatorda bolaga u erishgan yutuq va muvaffaqiyatlarning natijalari hamda samarasi haqidagi tasavvurlari ham

singdirib borilsa, 3,5-4,5 yoshlarga kelib bola ba`zi murakkab vazifa va topshiriqlarni bajarishda birmuncha ehtiyotkorlik bilan yondasha boshlashini kuzatish mumkin. Ta`kidlash joizki, bolalarda namoyon bo`ladigan talabgorlik darajalarining xususiyatlarini uning murakkab topshiriq va vazifalarni bajarishda o`z imkoniyatlari, ehtiyojlariga mos ravishda tanlash va rivojlanish dinamikasining namoyon bo`lishini taxminan o`n yoshlarga kelib to`g`ri shakllanishi kuzatiladi.

Bu borada yana bir muhim narsani ta`kidlash maqsadga muvofiq, mazkur yoshdagi bolalarning muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasining rivojlanganlik darajasini baholash, ularning ma`lum bir vazifalarni bajarish jarayonida o`zlari sarflagan kuchlarining qiymatini, ma`lum bir qismini, shuningdek bolaning zo`r berishi, tirishqoqligi samarasi o`laroq bunday muvaffaqiyatga erishish mumkinligini anglab etganligi haqidagi tushunchalarning anglab etishi ham bola uchun o`ta muhim jarayon hisoblanadi.

Kuzatish va tadqiqotlarimiz, bolalarda bunday qobiliyatning namoyon bo`lishini taxminin 8-9 yoshlarga kelib shakllanishi, bunday omillar hatto uch-to`rt yillardan keyin ham to`laqonli shakllanishi davom etishini e`tirof etish mumkin. 5-6 yoshlarda bola erishgan muvaffaqiyatlarning samarasini o`zining qobiliyati va tirishqoqligi zahirida namoyon bo`lishini asta-sekin anglab eta boshlasa-da , biroq birinchi tushunchasini ikkinchi tushunchasidan ustun qo`yishga sabab bo`laveradi.

Bu davrga kelib, bola motivlarining ierarxiyasi, ya`ni bir-biriga tobeligi shakllanishi kuzatiladi. Bola o`z xulqi va harakatlarini yuksak axloqiy tushuncha va tasavvurlari ta`siri natijasida boshqarishga harakat qila boshlaydi. Bola uchun ahamiyatli bo`lgan motivlarga muhim ahamiyat kasb etib, ikkinchi darajali motivlar esa unga o`z ta`sir kuchini yo`qota boradi.

Katta maktab yoshidagi bolalarda o`z-o`zini anglash qobiliyati undan oldingi davrga nisbatan ayni paytda, o`zi istiqomat qilib turgan zamon, vaqt doirasidan farqli, o`z o`tmishi va kelajakdagi sa`y-harakatlari uchun mas`ul bo`la olishidir.

Bu yoshda bolalar o'z harakatlarini imkon qadar baholashga, tahlil qilishga urinishlarini kuzatish mumkin. Bola o'tmishdagi voqea va hodisalarni „***Men yoshligimda qanday bola edim?***“ yoki „***Men katta bo'lsam qanday kishi bo'laman?***“ singari tushunchalar orqali fikr yurita boshlaydi. Mana shu ruknda fikr yuritish orqali bola ma'lum bir ahloqiy sifatlar haqida, bola uchun o'rnak bo'luvchi obro'-e'tiborli, kuchli, aqlli, jasur shaxslardek bo'lishga harakat qilishini ta'kidlaydi. Do'stona, samimiy muloqot ta'sirida kechadigan tarbiya jarayonida bola axloqiy-madaniy xulq-normalarini o'zlashtiradi, ularga o'zgalar ta'siri va ko'rsatmali asosida rioya qilishni o'zlashtiradi. Jamiyatning axloqiy-madaniy xulq-atvor normalariga rioya qilish bilan birga bola shaxsi shakllanib boradi, mazkur xulq normalari bola axloqiy xulqini boshqarishni erkin, ixtiyoriy boshqarishni o'zida o'zlashtirib boradi. Bola va uni qurshab turgan kishilar bilan turli munosabatlar yuzaga keladi, shaxsiy va uddaburonlik motivlari shakllanib boradi. Bolalik davrining so'nggi pallalarida ishbilarmonlik, uddaburonlik singari sifatlar bilan bir qatorda umuminsoniy fazilatlari ham shakllanadi, barqarorlashadi. Bu sifatlarning barchasi bola shaxsining individualligi, takrorlanmasligini, o'zgalarga o'xshamasligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalik davrining shaxsiy rivojlanishidagi eng muhim pallasi, bu – bolaning shaxsiy sifatleri, qobiliyati, yutuq va kamchiliklarini xususiy, individual o'z-o'zini anglashi tufayli kechish holatidir.

BOB BO'YICHA XULOSALAR

Bolaning maktabga moslashuvi va ta'lim-tarbiya jarayonini muvaffaqiyatli o'zlashtirishi, ko'p jihatdan bolaning shaxsiy, ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bilan bir qatorda ularning aqliy, verbal hamda umumetuklik xususiyatlarining mutanosib rivojlanishiga ham bog'liqdir. Bunday xususiyatlar orasidagi o'zaro uyg'unlik bolaga ta'lim-tarbiya jarayonida o'z o'qituvchisi, tengdoshlari bilan erkin muloqotga kirishishga, ixtiyoriy harakatlar qilishga, uni qiziqtirgan va bilmagan narsalarini do'stlaridan, o'qituvchisidan so'rab-surishtirishga, uyalish yoki tortinchoqlik singari his-tuyg'ularni engishga asos bo'ladi.

Mazkur bobda olib borgan tadqiqotlarimiz manzarasida, biz, ana shu xususiyatlar orasidagi o'zaro munosabatlarni aniqlashga, ularning nechog'lik birbirini to'ldirishiga ishonch hosil qilish maqsadida turkum tajribalarni o'tkazdirishga muvaffaq bo'ldik. Olib borgan tajribalarimizda kuzatishlarda, bolalarning maktabga umumetukligi, shaxsiy, ijtimoiy-psixologik, intellektual va verbal xususiyatlarining umumiy va farqli tomonlarini, o'zaro munosabatlarini izohlashga imkon berdi. Bular quyidagilar:

1.Malakali testlar yordamida bolalarning o'z-o'zini baholashi, kommunikativligi (muloqotchandligi) va mavqeining namoyon bo'lish shartlari aniqlandi;

4.Bolalarning maktabga umumetuklik va ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining o'zaro munosabatlari aniqlandi;

5.Bolalarning maktabga umumetuklik xususiyatlari bilan ularning muloqotchandligi orasidagi o'zaro bog'lanishlar aniqlandi;

6.Bolalarning maktabga umumetuklik xususiyatlari bilan mavqelari orasidagi o'zaro munosabatlar topildi;

7.Bolalarning shaxsiy, motivatsion-psixologik va aqliy xususiyatlarining o'zaro munosabatlari aniqlandi;

Mazkur bobda olib borilgan tadqiqotlar, bolalardagi bilish jarayonlarining o'ziga xos tomonlarini, chunonchi, bolalardagi tafakkurning namoyon bo'lishi,

ijodkorlik, ularda nutqining namoyon bo'lishi haqidagi turli ma'lumotlarni yoritishga imkon berdi. Shuningdek, bu xususiyatlarning bolalarning shaxsiy, ijtimoiy-psixologik fazilatlari bilan ham bevosita bog'liqlik tomonlari aniqlandi. Ularning emotsional-motivatsion yo'nalishlari, ichki rejalarning shakllanishi, o'zgalarga munosabatlarining shakllanishiga ta'sir kuchlari mavjudligi topildi.

XULOSALAR

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini jahon miqyosida yil sayin barqarorlashtirib borar ekan, uning istiqboli bugungi avlodning bilimdon, ma'naviy jihatdan barkamol insonlar bo'lib etishishiga bog'liqdir. Zero, Vatan taqdiri, xalq ravnaqi, mustaqil yurtning kelajak avlodi haqida qayg'urish bizning milliy, o'zbekona xususiyatlarimizga xos fazilatdir.

Mustaqilligimiz sharofati ana shunday dolzarb muammo davlatimizning ustuvor strategik yo'nalishlaridan munosib o'rin egallagani bejiz emas. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, „Ta'lim to'g'risida“gi qator qonunlar ta'lim sohasini tubdan isloh qilishni, uni jahon andazalari darajasiga ko'tarishni, mutaxassislarni esa raqobatbardor, faol shaxslar etib tayyorlashni nazarda tutadi.

Bu borada, ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim-tarbiyasiga alohida urg'u berilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, bolaga o'z vaqtida samarali ta'sir ko'rsata bilish, uning keyingi taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor yasashga asos bo'ladi..

Biroq, jamiyatimizda kechayotgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalaridagi keskin o'zgarishlar manzarasida bolalarni maktablarga qabul qilish, ularga muntazam malakali ta'sir ko'rsatish jarayoni mutasaddi shaxslardan o'ta yuksak mas'uliyat va mahorat talab etadi. Ularni muntazam izlanishda bo'lishini, ijodiy zamon bilan hamohang faoliyat yuritishini taqozo etadi.

Bolalarni umumta'lim maktablarining 1-sinflariga qabul qilishda bolalardagi aqliy, psixofiziologik etukligi bilan bir qatorda ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ham inobatga olish, bolalarning o'z tengdoshlari, o'qituvchi-pedagoglar bilan erkin muloqot o'rnatishga, mustaqil va ixtiyoriy sa'y-harakatlar qilishga, pirovardida ta'lim va tarbiya jarayonining tenghuquqli sub'ekti sifatida idrok etishini ta'minlaydi.

Shu maqsaddan kelib chiqib, biz maktablarning 1-sinflariga qabul qilinayotgan bolalarning motivatsion-psixologik xususiyatlarini ilmiy-nazariy

tomondan to'liq o'rganib, o'tkazilgan tadqiqotlarimizdan quyidagi xulosalar yaratishga muvaffaq bo'ldik:

1. Respublikamizda faoliyat yuritayotgan umumta'lim maktablarining 1-sinflariga qabul qilinayotgan bolalarning maktab ta'limiga tayyorlik darajalari turlicha ekanligi, ularning aqliy, psixofiziologik etukligi bilan bir qatorda motivatsion-psixologik omillarga ham bog'liq ekanligi ma'lum bo'ldi;

2. Jamiyatimizda kechayotgan demokratik o'zgarishlar manzarasida bolalarni maktabga motivatsion-psixologik tayyorlik muammosi yanada dolzarb ahamiyat kasb etib, ta'lim-tarbiya jarayonida bolaning o'z tengdoshlari va pedagog-o'qituvchilari bilan erkin, ixtiyoriy muloqot o'rnatishini ta'minlaydi.

3. Tadqiqotlarimiz maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-psixologik, motivatsion tayyorligiga ta'sir ko'rsatuvchi ustuvor omillar tizimini yaratishga imkon berdi. Olingan natijalarga binoan, maktabgacha maxsus ta'lim-tarbiya muassasalari: sport sektsiyalari va to'garaklarda shuningdek bolalar bog'chalarida tarbiyalanib, voyaga etgan bolalar yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lishdi.

4. Turli ijtimoiy sharoitlarda voyaga etgan bolalarning maktabga ijtimoiy-psixologik tayyorlik darajalari ham turlicha ekanligi, bu ko'p jihatdan ulardagi shaxsiy xususiyatlarining tarkib topishi va namoyon bo'lishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatishi ma'lum bo'ldi. Bola istiqomat qilayotgan hudud, ijtimoiy muhit, mahalla, oila a'zolarining soni, ularning madaniy va aqliy salohiyati bolaning ijtimoiy etilishiga ta'sir etuvchi omillarning mohiyati yoritildi.

5. To'liq 6 yoshli va 7 yoshdan yuqori bo'lgan bolalar orasidagi shaxsiy, motivatsion psixologik, aqliy sifatlarining farqli tomonlari aniqlandi. Ular orasidagi o'xshash va farqli fazilatlarning ahamiyatli jihatlari statistik isbotlandi.

7. Maktabdagi ta'lim jarayoniga ijtimoiy etuk bolalar o'zlarining erkin va ixtiyoriy xulq-atvori, sa'y-harakatlari samarasi o'laroq o'quv faoliyatida o'zlarining shaxsiy, intellektual xislatlarini ham birmuncha namoyon qila olish imkoniyatlariga egadirlar.

8. Mazkur tadqiqot doirasida qo'llanilgan malakali psixodagnostik metodikalar O'zbekistonning mahalliy sharoiti va millatiga mansub bolalar o'rtasida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda foydalanish mumkinligini ko'rsatdi.

Bugungi kunda mustaqil Respublikamiz dunyo hamjamiyati tomonidan tan olinayotgan ekan, uning kelgusidagi rivoji, gullab yashnashi bugungi kun yoshlariga bog'liqdir. Demak, bugungi yoshlar har tomonlama rivojlangan o'ziga, o'zga insonlarga, jamiyatga, tabiat va mehnatga o'z munosabatini to'g'ri bildiradi oladigan, mustaqil faoliyat yuritadi oladigan, ijodkor, faol shaxslar bo'lishi lozim. Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan olib borilayotgan ta'lim va tarbiya sohasidagi islohotlar, bolalar sportiga berilayotgan yuksak e'tibor uning dono siyosatidan dalolat beradi. Ana shunday ulkan maqsadlarni amalga tadbiiq etish biz pedagog-tarbiyachilardan mahorat va mas'uliyat talab etadi.

TAVSIYALAR

Mazkur tadqiqot doirasida olib borilgan ilmiy izlanishlarimizning samarasi sifatida bolalarning maktabdagi ta'limga motivatsion-psixologik tayyorligini yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi nazariy va amaliy tavsiyalar yaratishga imkon berdi:

- umumta'lim maktablarining 1-sinflariga qabul qilish davrida mutasaddi shaxslar bolalarning maktabga umumetuklik darajalari bilan bir qatorda motivatsion-psixologik tayyorligini ham inobatga olishlari maqsadga muvofiq;
- turli sharoitlarda voyaga etgan bolalarning motivatsion-psixologik darajalari ham turlicha ekanligini, bunda ijtimoiy muhit, mahalla, oila, bolaning do'stlari va maslakdoshlarining ta'sir kuchlarini e'tiborga olishlari lozim;
- ta'lim va tarbiya jarayonida ijtimoiy faol, tashabbuskor bolalarning individual xususiyatlarini inobatga olishlari, ijtimoiy rollarni to'g'ri taqsimlay bilish pedagogik mahoratini namoyon qilishi;

- bolalarning ijtimoiy faolligini yanada takomillashtirish maqsadida otalar, pedagog-tarbiyachilar, mahallaning faol aʼzolari bolalarni sport sektsiyalari, turli badiiy, sanʼat, texnik toʻgaraklarga jalb qilishlari, ularga qulay imkoniyatlar yaratib berishlari;

- maktab amaliy psixologlari, vrachlar, pedagog-tarbiyachilar taʼlim-tarbiya jarayonining barcha qatnashchilariga ijobiy psixologik iqlim yaratishga urinishlari, ularga oʻz-oʻzini adekvat baholashlari, oʻzaro hurmat va yordam, doʻstlari uchun qaygʻurish singari yuksak umuminsoniy qadriyatlarni singdirishga urinishlari;

- pedagog-tarbiyachilar turli shakldagi syujetli rolli, qoidali, ishbilarmon va tadbirkorlik oʻyinlarini muntazam tashkil qilib turishlari, bu borada xalqimizning uzoq tarixga ega boʻlgan milliy oʻyinlardan samarali foydalanishlari, ularning stsenariyalaridagi mavjud rollar orqali bolalarning kelajak hayoti haqida toʻgʻri tasavvurlarga ega boʻlishini taʼminlashlari;

- boy maʼnaviy va madaniy tarixga ega boʻlgan milliy qadriyat va anʼanalarimiz hisoblangan hasharlar, toʻy-marosimlar, bayramlarning bevosita taʼsiri tufayli bolada ijtimoiylashuv (sotsializatsiya) jarayoni yanada faol kechishini inobatga olishlari;

- tadqiqot materiallaridan pedagog-tarbiyachilar, oliygohlarida, amaliy psixologlar tayyorlovchi maxsus kurslar jarayonida hamda pedagogika oliygohlarining maktabgacha pedagogika va psixologiya fakulʼtetlarida samarali foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyhati:

1. *Karimov I.A.* Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, Sharq, 1997, 64 b.
2. „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“. Toshkent, Sharq, 1997
3. „Ta'lim to'g'risida"gi qonun. Toshkent, Sharq, 1997, 10 b.
4. *Abu Ali ibn Sina.* Izbrannie filosofskie trudi. Tashkent, 1979, 792s.
5. *Abu Nasr Farabi.* Filosofskie traktati. Tashkent, Fan, 1970
6. *Abu Rayxon Beruni.* Izbrannie proizvedeniya. Tashkent, 1966
7. *Anan'ev B.G.* Geneticheskie i strukturnie vzaimosvyazi v razvitiі lichnosti. V kn.: Xrestomatiya po vozrastnoy i pedagogicheskoy psixologii. /Pod red. I.I. Il'yasova, V.A. Lyaidus. M., MGU, 1981, 126 s.
8. *Bezrukix M.M., Efimova S.P.* Znaete li vi svoego uchenika? M., Prosveshchenie, 1991, 176 s.
9. *Bogouslavskaya Z.M.* Individual'nie osobennosti vzaimootnosheniya so vzroslimi u detey doshkol'nikov //Nekotorie aktual'nie psixologo-pedagogicheskie problemi vospitaniya i vospitivayuyemogo obucheniya./Tezisi dokl. konf. Kiev, 23-26 marta- M., 1976, str.145-151
10. Bolalarni maktabga o'qishga tayyorlash.(Ilmiy maqolalar to'plami). Toshkent, 1997, 45b.
11. *Bojovich Ya.I.* Lichnost' i ee formirovanie v detskom vozraste. M., 1968, 464 s.
12. *Bojovich YA.I.* Otnosheniya doshkol'nikov k ucheniyu kak psixologicheskaya problema.//Voprosi psixologii shkol'nikov. M., 1952
13. *Bruner Dj.* Protsess obucheniya. Perv. s angl. M., 1962
14. *Bure R.S.* Gotovim detey k shkole. M., Prosveshchenie, 1987
15. *Vallon A.* Psixicheskoe razvitie rebenka. Perv. s frants. M., Prosveshchenie, 1967
16. *Venger A.YA.* Formirovanie operatsiy i organizatsiya usloviy u detey doshkol'nogo vozrasta. Avtoref. diss... kand.psix.nauk. M., 1977

17. *Venger V.A.* Psixologicheskaya gotovnost` k shkole.//Voprosi psixologii.1984, №7
18. *Venger L.A.* Psixologicheskie osobennosti 6-letnix detey.//Obucheniya detey s shestiletneho vozrasta. M., 1985
19. *Vohidov M.* Bolalar psixologiyasi. Toshkent, O`qituvchi, 1982, 366 b.
20. Vozrastnie vozmojnosti usvoeniya znaniy: mladshie klassi./Pod red. D.B.El`konina, V.V.Davidova. M., Prosveщenie, 1966
21. *Vigotskiy L.S.* Obuchenie i razvitie v doshkol`nom vozraste./Izbr. psixologichesie issledovaniya. M., 1956
22. *Vigotskiy L.S.* Izbrannie psixologicheskie issledovaniya. M., 1956, 519s.
23. *Vigotskiy L.S.* Igra i ee rol` v psixicheskom razvitii rebenka.//Voprosi psixologii. 1966, №3
24. *Vigotskiy L.S.* Problemi vozrastnoy periodizatsii detskogo vozrasta //Voprosi psixologii. 1972,№2, str.114-123
- 23.*Vigotskiy L.S.* Pedagogicheskaya psixologiya /Pod red. V.V.Davidova. M., Pedagogika, 1991, 480 s.
24. *Gal`perin P.YA., Zaporozets A.V., El`konin D.B.* Problemi formirovaniya znaniy i umeniy u shkol`nikov i novie metodi obucheniya v shkole.//Voprosi psixologii. 1963, № 5, str.3-12
25. *Davletshin M.G., Dustmuxamedova SH.A., Mavlonov M.M.,To`ychieva S.M.* YOsh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya./O`quv metodik qo`llanma. Toshkent, 2004, 130 b.
- 26.*Davletshin M.G.* Psixologicheskie osnovi obucheniya., Toshkent,O`qituvchi,1978
27. *Davletshin M.G.* Zamonaviy maktab o`qituvchisining psixologiyasi. Toshkent, O`zbekiston, 1999, 29 b.
28. *Daminova M.* Bolalarni oilada maktabga tayyorlash. Toshkent, O`qituvchi, 1968

29. *Dustmuxamedova SH.A.* Psixologicheskie osobennosti pedagogicheskoy otsenki v obuchenii detey shestiletнего возраста. Avtoref.dis...kand.psix.nauk, M., 1987, 24 s.
30. *Davidov V.V.* Problemi razvivayuyemogo obucheniya. M., 1986
31. Diagnostika umstvennogo razvitiya doshkol`nikov./Pod red. L.A.Vengera, A.L.Vengera i V.V.Xolmovskoy. M., Pedagogika, 1978, 248 s.
32. Deyatel`nost` i vzaimootnosheniya doshkol`nikov./Pod red.T.A.Repinoy. M., 1987, 190 s.
33. *Zaporojets A.V.* Pedagogicheskie i psixologicheskie problemi vsestoronnego razvitiya i podgotovki k shkole starshix doshkol`nikov.//Vospitanie i obuchenie starshix doshkol`nikov v detskom sadu. Tezisi Vsesoyuzn. konfer. Minsk, 29 noyabrya-2 dekabrya 1971-M., 1971, str.1-6
34. *Zaporojets A.V.* Podgotovka detey k shkole //Osnovi doshkol`noy podgotovki /Pod red. A.V.Zaporojtsa, T.A.Makarova. M., 1980, str. 250-257
35. *Zaporojets A.V.* Psixofizicheskie vozmojnosti rebenka doshkol`nika i optimal`nie pedagogicheskie usloviya ix realizatsii //Funktsional`nie i adaptatsionnie vozmojnosti detey i podrostokov. Tez. dokl. konf. Petrozavodsk, T.2., M., 1994, str. 93-95
36. *Zufarova M.* Etti yoshli bolalarning psixologik jihatdan maktab ta`limiga tayyorligi. Diss...psix.fan.nomz., Toshkent., 1969, 215b.
37. *Ibn Sino, Abu Ali.* Tib qonunlari. (3 jildlik saylanma). Tuzuvchilar: U.Karimov, X.Hikmatullaev. j.1, Toshkent, A.Qodiriy, 1993, 304 b.
38. Igri i uprajneniya v obuchenii shestiletok. /Pod red. N.V.Sel`dj, Minsk, 1985
39. *Ismailova F.S., Nishonova Z.T.* O`quvchilarning aqliy qobiliyatini rivojlantirishda aqliy o`yinlardan foydalanish. Toshkent, 1993, 28 b.
40. *Karimova V.M.* Psixologiya. Toshkent, A.Qodiriy, 2002, 205 b.
41. *Karule A.YA.* Obucheniya shestiletnix detey v shkole. Iz opita raboti podgotovitel`nix klassov. M., 1984

42. *Kolominskaya YA.L., Pan`ko E.A.* Uchitelyu o psixologii detey shestiletneho vozrasta. Kniga dlya uchiteley. M., Prosveщenie, 1988, 190 s.
43. *Kon I.S.* Rebenok i obщество. M., Nauka, 1988
44. *Kravtsova E.E.* Psixologicheskie problemi gotovnosti detey k obucheniyu v shkole. M., Pedagogika, 1991, 151 s.
45. *Kravtsov G.G., Kravtsova E.E.* Shestiletniy rebenok. Psixologicheskaya gotovnost` k shkole. M., Znanie, 1987, 80 s.
46. *Kucherova E.V.* Osobennosti razvitiya samosoznaniya v doshkol`nom vozraste. //Osobennosti obucheniya i vospitaniya detey doshkol`nogo vozrasta. M., 1987
47. *Leytes N.S.* Umstvennie sposobnosti i vozrast. M., 1971, 277 s.
48. *Leont`ev A.N.* Aktual`nie problemi razvitiya psixiki rebenka. /Izvestiya APN RSFSR , 1948, Vip.14. str.3-11
49. *Leont`ev A.N.* Psixicheskoe razvitie rebenka v doshkol`nom vozraste. //Voprosi psixologii rebenka doshkol`nogo vozrasta. M., 1948, str. 4-15
50. *Leshli Dj.* Rabotat` s malen`kimi det`mi, poощryat` ix razvitie i reshat` problemi. Perev. s angl., Kn. Dlya vospitatelya detskogo sada. M., Prosveщenie, 1991, 223 s.
51. *Lisina M.I.* O mexanizmax smeni vedущix deyatel`nostey u detey pervie sem` let jizni. //Problemi periodizatsii razvitiya v ontogeneze. M., 1976, str. 5-8
52. *Lisina M.I.* Obщeniya detey so vzroslimi i sverstnikami: obщee i razlichnoe //Issledovaniya po problemam vozrastnoy i pedagogicheskoy psixologii. M., 1980
53. *Matyuxina M.V.* Motivatsiya ucheniya mladshix shkol`nikov. M., 1984
54. *Mirzajanova D.M.* Psixologicheskie osnovi formirovaniya lichnosti rebenka v natsional`nix igrax. Avtoref. diss...kand.psix.nauk. Toshkent, 1997, 20 s.
55. *Mudrik A.V.* Lichnost` shkol`nika i ee vospitanie v kollektive. M., Znanie, 1983

56. *Musurmonova O.* Bolalarni tarbiyasida oilaning roli./Bolalarni maktabga o'qishga tayyorlash. Toshkent, 1997, 35-38 betlar
57. *Muxina V.S.* Detskaya psixologiya.M., 1985
58. *Muxina V.S.* Shestiletniy rebenok v shkole. M., Prosvshenie, 1986,
59. *Mo'minova L.R., Nurkeldieva D.A.* 5-7 yoshli bolalarni maktab ta'limiga tayyorligini tekshirish dasturi. Toshkent, 1996, 60 b.
60. Osobennosti psixologicheskogo razvitiya detey 6-7 letnego vozrasta./Pod red. D.B.El'konina, A.L.Vengera. M., 1988, 123 s.
61. Otnosheniya mejdu sverstnikami v grupe detskogo sada./Pod red. T.A.Repinoy. M., 1978, 189 s.
62. *Paramonova L.G.* Kak podgotovit` rebenka k shkole. SPb., AST, 1997, 349 s.
63. *Petrochenko G.G.* Razvitie detey 6-7 let i podgotovka ix k shkole. Minsk, 1982
64. Populyarnaya psixologiya dlya detey./Pod red. A.A.Bodaleva. M., Pedagogika, 1988, 256 s.
65. Psixologiya i pedagogika igri doshkol`nika./Pod red. A.V.Zaporojtsa, A.P.Usovoy. M., 1966, 348 s.
66. *Sunnatova R.I.* Samoregulyatsiya mislitel`noy deyatel`nosti. Toshkent, Fan, 1996
67. *Usova A.P.* Obsheniya v detskom sadu.M., 1970, 205 s.
68. *Sharipova D.* Bolalarni maktabga tayyorlashning fiziologik va gigienik asoslari /Bolalarni maktabga o'qishga tayyorlash. Toshkent, 1997, 40-42 betlar
69. O'zbekiston pedagogikasi antologiyasi. 2 jildli, J.1. /Tuzuvchilar K.Hoshimov, S.Ochil. Toshkent, O'qituvchi, 1995, 464 b.
70. *Qodirov B.R.* Iste'dot-millat boyligidir. /Pedagogika oliy o'quv yurtlarida psixologiya fanlarini o'qitishni takomillashtirish muammolari. (Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallarining to'plami). Toshkent, 1997, 18-21 betlar.

ANKETA-SO'ROVNOMA

Hurmatli kasbdosh !

Bolalarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni 5 – balli mezon asosida baholang.

Mezonlar:

- 1 - juda kam ,
- 2 - kamroq,
- 3 - o'rtacha,
- 4 - kuchliroq,
- 5 - juda kuchli

1. Ijtimoiy muhit
2. Maxsus muassasalar (sport seksiyalari, to'garak va boshq.).....
3. Bolalar bog'chalari.....
4. Katta, serfarzand oilalar.....
5. Kamfarzandli (nuklear) oilalar.....

Biz Sizdan samimiy va xolisona javoblaringizni kutib qolamiz.

Agarda bu borada yana fikr-mulohazalaringiz bo'lsa, anketa-so'rovnomaning orqasiga qayd qilishingiz mumkin.

Samimiy va xolisona javoblaringiz uchun biz Sizga o'zimizning chuqur minnatdorchiligimizni bildiramiz!

ANKETA-SO'ROVNOMA

Hurmatli kasbdosh !

Turli sharoitlarda tarbiyalangan bolalarning ta`limga ijtimoiy-psixologik tayyorligini 5 – balli mezon asosida belgilab berishingizni so'raymiz.

Mezonlar qiymati: 5- ball (juda yuqori darajada namoyon bo'ladi);

4- ball (yuqori darajada);

3- ball (o'rtacha darajada) ;

2- ball (past darajada);

1- ball (juda past darajada).

1.Maktab sharoitiga moslashuvi.....

2.Tengdoshlari bilan hamkorligi.....

3.O'qituvchi-pedagoglar bilan hamkorligi.....

4.O'z-o'zini baholashi va nazorat qilishi.....

5.O'z-o'zini boshqarishi.....

Biz Sizdan samimiy va xolisona javoblaringizni kutib qolamiz.

Agarda bu borada yana fikr-mulohazalaringiz bo'lsa, anketa-so'rovnomaning orqasiga qayd qilishingiz mumkin.

Samimiy va xolisona javoblaringiz uchun biz Sizga o'zimizning chuqur minnatdorchiligimizni bildiramiz!

Ilova № 3

„Men qandayman“ metodikasi – bu metodika maktabgacha yoshdagi bolalarning oʻz-oʻzini baholashini oʻrganishga qaratilgan. Bunda bola oʻzida namoyon boʻladigan 10-ta ijobiy xislatlarini qanday idrok etishi va baholashlarini ekspert maxsus bayonnomada qayd etib boradi va ballarga aylantiradi.

Ball natijalari: „ha“ javob uchun – 1 balldan, „yoʻq“ javoblari uchun – 0 balldan qayd qilib boriladi. „Bilmayman“ yoki „baʼzida“ javoblari uchun – 0,5 balldan belgilanadi. Bolaning oʻz-oʻzini baholash ballari barcha sifatlardan toʻplangan ballarning yigʻindisidan iborat boʻladi.

Bola shaxsining baholanadigan sifatlari:

- 1) Yaxshi bola
- 2) Mehribon
- 3) Aqlli
- 4) Saranjom-sarishta, ozodaligi
- 5) Itoatgoʻyligi
- 6) Diqqat, eʼtibori
- 7) Xushmoamala
- 8) Chaqqon, epchil
- 9) Mehnatsevar
- 10) Vijdonli

Rivojlanganlik darajalarining xulosalari quyidagicha:

- 10 ball – juda yuqori
- 8-9 ball - yuqori
- 4-7 ball – oʻrtacha
- 2-3 ball - past
- 0-1 ball – juda past

„Bolaning atrofdagi kishilar bilan muloqotini aniqlash“ (yoki *Kommunikativlik*) metodikasi – mazkur metodika bolalarning kommunikativlik shaxsiy sifatлари nufuzli hakamlar tomonidan baholashni taqozo etadi. Bolaning shaxslararo munosabatlari, shuningdek bu sifatlar bilan funktsional bogʻliq kommunikativlik xususiyatlari bolani yaqindan bilgan kishilar tomonidan xolisona baholanadi.

Yuqorida taʼkidlaganimizdek, bunday ekspertlar sifatida biz bolani yaqindan biladigan nufuzli hakamlarning yordamiga tayanganmiz. Ulardan bolaning quyidagi fazilatlarini aniqlab berish soʻraladi: 1) Mehribonlik

- 2) Odamlarga eʼtiborlik
- 3) Toʻgʻri soʻz, vijdonli
- 4) Xushmuomalalik
- 5) Dilkashlik
- 6) Saxiylik
- 7) Mehr-shafqatlilik
- 8) Rostgoʻylik
- 9) Xushchaqchqlik
- 10) Masʼuliyatlik

Ekspertlar soʻrovnomadagi bandlarga: „ha“ – 1 ball,

„yoʻq“ – 0 ball,

„bilmayman“ yoki „baʼzida“ – 0,5 ball

bilan baholaydilar. Olingan natijalar maxsus blanklarda qayd etiladi.

Rivojlanganlik darajalarining xulosalari quyidagicha:

- 10 ball – eng yuqori,
- 8-9 ball – yuqori,
- 4-7 ball – oʻrta,
- 2-3 ball – past,
- 0-1 ball – juda past.

1 – sinflarga kelayotgan bolalarni va ularning oilalarini o'rganuvchi ijtimoiy-psixologik so'rovnoma

1. Bolaning ismi va familiyasi
2. Tug'ilgan yili, oyi, kuni
3. Turar joyi (manzili)
4. Ota-onasining ismi-sharifi
5. Ota-onasining ish joyi
6. Ota-onasining kasbi
7. Ota-onasining ma'lumoti
8. Ota-onasining mutaxassisligi
9. Ota-onasining yoshi
10. Oila turlari (nuklear yoki ko'p tabaqali)
11. Bolaning tarbiyalangan joyi (bog'cha, oila yoki boshqa)
12. Bolaning sog'lig'i
13. Bolaning nutqi
14. Bolaning qiziqishlari
15. Bolaning o'rtoqlari soni
16. Bolaning yashash joyi (shahar, qishloq, ko'p qavatli uylar yoki hovli)
17. Bolaning xarakter xususiyatlari (tortinchoq, gapga chechan, kamgap, uyatchang, indamas, yig'loqi, sho'x, agressiv, tinib-tinchimas va h.k.z.)
18. Bolaning yoqtirgan kasbi
19. Oiladagi bolalar soni
20. Bola oiladagi nechanchi farzand ekanligi